

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 14-oktabr, № 214-215 (9385-9386) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSIQXONALARNING EKOLOGIK XAVFSIZ FAOLIYAT YURITISHI TA’MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-oktyabr kuni issiqxonalar faoliyatiga “yashil” texnologiyalarni joriy qilish va ularning ekologik xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Avvalo, Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi issiqxonalar holati tahlil qilindi. O‘tgan yili maxsus komissiya tomonidan issiqxonalar xatlovdan o‘tkazilib, muayyan qismiga ekologik toza energiya manbalariga o‘tishiga ko‘maklashildi. Shu bilan birga ayrim xo‘jaliklarda hali ham ko‘mirdan foydalanilmoqda.

Kuz-qish oylarida shamol sustlashishi va harorat inversiyasi tufayli issiqxonalardan chiqadigan tashlamalar poytaxt va uning atrofida to‘planishi mumkin.

Shu bois Toshkent shahri va unga tutash beshta tumanda issiqxonalar uchun “yashil” texnologiyalarga asoslangan maxsus ekologik tartib joriy etish taklif qilindi. Isitishda tabiiy gaz, elektr, geotermal va quyosh energiyasi, shuningdek, issiqlik elektr stansiyalarining ikkilamchi issiqligidan foydalanishga ruxsat beriladi. Shina, plastmassa, bitum, mazut, ishlatilgan moy va chiqindilarni yoqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qattiq yoqilg‘ida ishlayotgan issiqxonalarga joriy yil 1-dekabrga qadar ushbu manbalarga o‘tish taklif qilinadi. Yoqilg‘ini yopiq joyda saqlash, avtomatlashtirilgan qozonlar va samarali chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilgan bo‘lishi, kul va shlakni xavfsiz yig‘ish uchun sharoit, zaxira generatori mavjudligi, tutun mo‘risi minimal balandlik me’yoriga muvofiqligi kabi qat’iy texnik talablarga mos bo‘lgan issiqxonalargagina qattiq yoqilg‘idan foydalanishga ruxsat berilishi mumkin.

Joriy yil 15-oktyabrdan kelgusi yil 15-martga qadar issiqxonalarda doimiy ekologik monitoring olib boriladi. Unda chang-gaz tozalash uskunalarining ishlashi, havoga chiqarilayotgan tashlamalar miqdori va yoqilg‘i turlariga qo‘yilgan talablarga rioya etilishi nazorat qilinadi. O‘lchov uskunalari va videokuzatuv vositalaridan olinadigan ma’lumotlar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining axborot tizimiga real vaqt rejimida uzatiladi. Monitoringda dronlardan foydalaniladi, jamoatchilik nazorati vakillari ham ishtirok etadi.

Chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilmagani, tashlamalar me’yordan oshgani yoki taqiqlangan yoqilg‘i ishlatilgani aniqlansa, belgilangan tartibda ta’sir choralari qo‘llaniladi. Zarur hollarda issiqxona faoliyati to‘xtatiladi.

Issiqxona xo‘jaliklarining yangi talablarga moslashishi uchun moliyaviy ko‘mak choralari ishlab chiqilgan. Ekologik va energotejamkor uskunalarni o‘rnatishga har gektar uchun 50 million so‘mgacha subsidiya, yetti yil muddatga 3 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratish taklif etildi. Monitoring uskunalarini xarid qilish va o‘rnatish xarajatlarini yengillashtirish ham nazarda tutilgan.

(Davomi 2-betda).

YAYLOVLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, suv ta’minotini yaxshilash hamda ulardan samarali foydalanish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 21 million 255 ming gektar yaylov mavjud, biroq ularning atigi 40 foizidan samarali foydalanilmoqda. Davlatimiz rahbari ushbu katta imkoniyatni to‘liq ishga solish yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda favqulodda muhim ekanini ko‘rsatib o‘tdi.

Yaqinda yaylovlardan samarali foydalanish bo‘yicha imzolangan Prezident qarori ijrosini tashkil etish vazifalari belgilab olindi. Hokimlar oldiga yil yakunigacha 620 ming gektar, kelgusi yilda 3 million 700 ming gektar yaylovni qayta tiklash va hosildorligini oshirish vazifasi qo‘yildi. Ular Chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish agentligi bilan bir oy muddatda degradatsiyaga uchragan maydonlarni joriy yilda 10 foizga, kelasi yili 20 foizga qisqartirish bo‘yicha kompleks dasturlarni tasdiqlaydi.

Navoiy viloyatida mahalliy byudjetdan ajratilgan 30 milliard so‘m hisobiga “Kengsoy” nasos stansiyasi rekonstruksiya qilinib, 20 ming gektar yaylov o‘zlashtirilmoqda. Bu imkoniyatdan foydalanib 11 ta tadbirkor suv havzalari qurish va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishga kirishgan. Natijada ushbu maydonlarda 60 ming bosh qoramol uchun yiliga 250 ming tonna ozuqa yetishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida esa 1 ming 332 gektar yaylovda pivot sug‘orish tizimi joriy etilib, mahalliy sharoitga mos yangi ozuqabop o‘simliklar ekilmoqda. Ushbu tajribani Muborak va Dehqonobod tumanlarida ham yo‘lga qo‘yish, shuningdek, bir yil ichida jami 9,4 ming gektar urug‘chilik maydonini tashkil etish topshirildi.

Yaylovlarni suv bilan ta’minlash uchun moliyaviy manbalar ham belgilandi. Yaylovlar ijarasidan tushadigan mablag‘lar hududiy yaylov xo‘jaliklari ixtiyorida qoldiriladi. Ushbu mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha 448 ta quduq qazilib, kelgusi yilda 1,5 million gektar yaylovning suv ta’minoti yaxshilanadi. Yil yakunigacha 1 ming 600 ta quduq ta’mirlanadi.

Qolaversa, byudjetdan ajratilgan 100 milliard so‘m hisobidan joriy yilda 161 ta, 2027 va 2028-yillarda 81 tadan – jami 323 ta sug‘orish inshooti barpo etiladi. Bu 969 ming gektar yaylovni tiklash imkonini beradi.

Yaylovlardan uzoq yillardan buyon foydalanib kelayotgan chorvadorlarning huquqlarini rasmiylashtirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Hozir 260 ming bosh chorva boqilayotgan 623 ming gektar yaylovni amaldagi foydalanuvchilar nomiga rasmiylashtirish uchun tegishli komissiyaning vakolati yil oxirigacha uzaytiriladi.

(Davomi 2-betda).

DAVLATIMIZ RAHBARI OHICHK SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 14-15-oktyabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Boku shahrida bo‘lib o‘tadigan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtirok etadi.

Ozarbayjon raisligida o‘tkaziladigan forum kun tartibidan Osiyo qit’asida ishonch, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash hamda Kengashning institutsional rivojlanishini yanada takomillashtirishga oid dolzarb masalalar o‘rin olgan.

Transport bog‘liqligini rivojlantirish, raqamlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Ishtirokchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Tadbir yakunlari bo‘yicha Boku deklaratsiyasi hamda Tashkilotning roli va samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar to‘plamini qabul qilish rejalashtirilgan.

Sammit doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazadi.

Ta’kidlash joiz, OHICHK Osiyoda hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan xalqaro forum hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Kengash qit’a hududi va aholisining qariyb 90 foizini tashkil etuvchi 28 ta davlatni birlashtirgan.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

ROBOTOTEXNIKA BO‘YICHA XALQARO MUSOBAQA G‘OLIBLARI VA ULARNING MURABBIYLARINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zining yuksak intellektual salohiyati, professional mahorati hamda zamonaviy muhandislik sohasidagi chuqur bilim va malakasini yaqqol namoyon etib, Koreya Respublikasining Inchxon shahrida o‘tkazilgan “FIRST Global Challenge” xalqaro robototexnika musobaqasida dunyoning 190 ga yaqin mamlakatidan kelgan iqtidorli yoshlar o‘rtasida rekord natijaga erishib, tom ma’noda tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritgani va jahon chempioni degan ulkan sharafli nomga sazovor bo‘lgani, shu tariqa Yangi O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e’tibori va nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shgani, yosh avlodni ilm-fan, ilg‘or texnologiyalar, ixtiro va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur tuyg‘ularini kamol toptirish borasida alohida namuna ko‘rsatib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Bo‘taxonov Ziyodulla Zoyirjon o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi bosh murabbiysi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Salomov Ibroxim Uktamovich – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi sardori

Abdujabborov Abdullox Abdug‘ofur o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi texnik murabbiysi

Akbarov Shoxruxbek A’zamjon o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Kosimov Akbarshox Anvar o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Miraxmedov Ayubxon Anvar o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Pardayev Umarbek Sherzod o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Sodiqov Shukrullo Sherali o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Teshabayev Maxkambek – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Teshabayeva Safina – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi menejeri

Tojiqo‘ziyev Jasurbek Rustamjon o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Urmanov Baxodir Doniyorovich – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Urmanov Xondamir Doniyorovich – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Yusupxo‘jayev Hasanxon Alisher o‘g‘li – Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi menejeri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 13-oktyabr

YOSH MUHANDISLARIMIZ MUVAFFAQIYATI



Mamlakatimizda IT sohasini rivojlantirish, STEM ta’limini ommalashtirish hamda ushbu sohaga qiziquvchi iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar o‘z mevasini bermoqda.

Iftixor

Koreya Respublikasining Inchxon shahrida o‘tkazilgan “FIRST Global Challenge” xalqaro robototexnika musobaqasida O‘zbekiston milliy terma jamoasi mutlaq g‘olib bo‘lishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Murosasiz bahslarga boy bellashuv yigit-qizlarning aql-zakovat, iroda va mahoratini chinakam sinovdan o‘tkazdi. Asosiysi, dunyoning 190 ga yaqin mamlakatlaridan kelgan iqtidorli yoshlar, bo‘lajak konstruktor va olimlar jam bo‘lgan ushbu anjumanda O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zolari o‘zlarining bilimi, noan’anaviy muhandislik yechimlari hamda jamoaviy jipsligi bilan barchani lol qoldirdi.

Bu yilgi musobaqa ishtirokchilar oldiga juda murakkab, global va muhim muhandislik vazifalarini qo‘ygani bilan esda qoldi. Yosh robototexniklarimiz bir necha oy davomida tunlarni kunga ulab, o‘z qo‘llari bilan tafakkur mahsuli bo‘lmish robotlarini yaratdi.

Jahonning eng ilg‘or davlatlari jamoalari bilan kechgan keskin hamda hayajonli bellashuvlarda vakillarimiz dasturlash va mexanikaning chigal tugunlarini mohirona yechib, 3 ta oltin medalni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, 16 ta o‘yinning barchasida g‘alaba qozonib, 637 ball bilan musobaqa rekordini ham yangiladi.

2

Biz va jahon


O‘ZBEKISTON – HAMJIHATLIK VA TINCHLIK TARAFDORI

Shiddatli va global tahlikalar kuchaygan bugungi davrda dunyoning diqqat markazi asta-sekin Yevroosiyo qit’asiga, xususan, Osiyo mintaqasiga ko‘chmoqda. Mintaqa nafaqat jahon iqtisodiyotining asosiy lokomotivi, balki yangi geosiyosiy muvozanatlar shakllanadigan markazga aylandi. Ana shunday ulkan va rang-barang qit’ada xavfsizlikni ta’minlash, davlatlararo ishonchni mustahkamlash va ko‘p tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK) muhim va o‘ziga xos diplomatik platforma hisoblanadi.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashga bugungi kunda mintaqa hududi va aholisining 90 foizini qamragan 28 davlat a’zo. O‘zbekiston ham 2002-yil 4-iyun kuni OHICHKning asosiy hujjati – Olmaota aktini imzolagan.

2

YANGI O‘ZBEKISTONNING SHAHARSOZLIK MEGALOYIASI



Davlatimiz rahbarining hududlarga, yangi bunyodkorlik maskanlariga har bir tashrifi yurtdoshlarimiz, ishbilarmonlar va keng jamoatchilikning doimiy diqqat-e’tiborida. Chunki ular xalqimiz hamda mamlakatimiz manfaatlariga xizmat qiluvchi yangidan-yangi hayotiy taklif va tashabbuslarga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Prezidentimizning Yangi Toshkentga kuni kecha amalga oshirgan tashrifi chog‘ida ham ushbu megaloyihani ro‘yobga chiqarishda ishlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan takliflar bildirilgani, investorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazilgani, sarmoyadorlarga berilgan misli ko‘rilmagan imtiyozlar hamda start olgan istiqbolli loyihalar so‘zimizning yaqqol tasdig‘idir.

6

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 14-oktabr

ISSIQXONALARNING EKOLOGIK XAVFSIZ FAOLIYAT YURITISHI TA’MINLANADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shaxsiy tomorqalardagi issiqxonalarni yangilashga ko‘maklashish bo‘yicha alohida takliflar tayyorlangan.

Xususan, 2030-yilgacha yer va mol-mulk soliqlarini 50 foizga kamaytirish, aylanmadan olinadigan soliqdan ozod qilish hamda energotejamkor tizimlar iste’mol qilgan elektr energiyasi xarajatining yarmini qoplash taklif etilmoqda. Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi xonadonlarga “yashil” energiya manbalari va samarali uskunalarni joriy etish uchun 100 million so‘mgacha grant ajratish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Yangi “yashil” issiqxona qurishga 300 million so‘mgacha, mavjudini qayta jihozlashga 150 million so‘mgacha imtiyozli kredit berish nazarda tutilmoqda. Issiqxonachilikka ixtisoslashtirilgan 50 ta mahallada ehtiyojmand oilalar uchun ekologik xavfsiz issiqxonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

Issiqxonalarda hosil bo‘ladigan ifloslangan drenaj va filtr suvlarini yig‘ish, tozalash hamda qayta ishlatish masalasi ham ko‘tarildi. Buning uchun maxsus operator faoliyatini yo‘lga qo‘yish va Ohangaron tumanida zarur infratuzilmani tashkil etish taklif qilindi.

Taqdimotda iqlimi qulay hududlarda zamonaviy issiqxonachilikni rivojlantirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Sherobod tumanidagi “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasiga 940 gektar yer ajratilgan va uning master rejasi ishlab chiqilgan. Zonada issiqxonalar va agrologistika obyektlarini barpo etish, shu jumladan, banklar balansidagi issiqxonalarni bu yerga ko‘chirish taklif etildi.

Erkin iqtisodiy zonada investorlar uchun yer ijarasiga besh yil davomida nol stavka qo‘llanilmoqda, kanalizatsiya va yer osti suvlari bilan bog‘liq to‘lovlar bo‘yicha uch yillik imtiyoz berilgan. Qo‘shimcha ravishda yer uchastkalarini normativ qiymatining 10 foizi miqdoridagi boshlang‘ich narx bilan auksionga chiqarish, qiymati 10 million dollardan yuqori bo‘lgan loyihalar hamda Toshkent shahri va viloyatidan issiqxonalarini ko‘chiradigan tadbirkorlar uchun esa ushbu ko‘rsatkichni 1 foiz etib belgilash taklif qilindi.

Shuningdek, zona ishtirokchilarini besh yilga yer, mol-mulk va foyda soliqlaridan, olib kelinadigan issiqxona uskunalarini bojxona bojidan ozod qilish taklifi ko‘rib chiqildi. 400 gektar maydonda issiqxonalar va agrologistika obyektlarini barpo etib, investorlarga tayyor loyiha sifatida sotish rejalashtirilmoqda. Infratuzilmaga 220 milliard so‘m, loyihalarni moliyalashtirishga 200 milliard so‘m yo‘naltirish hamda 2027-yilda 100 million dollar investitsiya jalb etish vazifasi qo‘yildi.

Mutasaddilarga issiqxonalarning joylashuvi, energiya resurslari manbalari va ularni yetkazib berish hajmini aks ettiruvchi raqamli xaritani tayyorlash topshirildi. Shuningdek, issiqxona mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda sotish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha choralar ishlab chiqiladi.

YAYLOVLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Olis hududlardagi aholi o‘z xonadonlaridagi chorvani o‘tlatishi uchun jamoat yaylovlari tashkil etiladi. Yil yakunigacha 470 ta mahallaga 627 ming gektar yaylov 49 yilga bepul ijaraga beriladi. Ushbu maydonlar soliqdan ozod qilinadi.

Yangi tartibga ko‘ra, yaylov yerlarining toifasini o‘zgartirmasdan chorvachilik komplekslari qurishga ruxsat beriladi. Bu jarayonda yer uchastkalarining boshlang‘ich narxi va yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlari kabi hisoblanadi. Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida jami 130 gektar maydonda 55 ming boshdan ortiq chorvaga mo‘ljallangan 15 ta kompleks qurilishi belgilandi.

Yaylovlardan faqat chorva boqish uchun emas, balki ekoturizm, asalarichilik, dorivor o‘simliklar yetishtirish, ko‘chatchilik, ovchilik va pillachilik yo‘nalishlarida ham foydalanish muhim ekani qayd etildi. Shu sababli yaylovlarni mazkur faoliyat turlari uchun ham ijaraga berishga ruxsat etiladi. Bunday loyihalarni amalga oshirishda yaylovlarning tabiiy holatini saqlash va ularning qayta tiklanishini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Mutasaddilarga yaylovlarni tiklash, suv va ozuqa bazasini mustahkamlash, aholi hamda tadbirkorlar uchun belgilangan yangi imkoniyatlarni joylarda amalga oshirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘zA.

O‘ZBEKISTON – HAMJIHATLIK VA TINCHLIK TARAFDORI

1

To‘qqiz mamlakat va beshta nufuzli xalqaro tuzilma, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Arab davlatlari ligasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi ushbu kengashning kuzatuvchilaridir.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash 2007-yil oktyabr oyida BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomini olgan.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning asosiy maqsadi – ochiq muloqot, o‘zaro ishonch va teng huquqli sheriklik orqali Osiyo mintaqasida xavfsizlikning butun qit’ani qamrab oluvchi yaxlit arxitekturasini yaratishdan iborat.

Ayonki, Osiyoda turli sivilizatsiyalar, dinlar va siyosiy tuzumlar mavjud. OHICHK ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish va ishonchsizlikni bartaraf etish uchun noyob muloqot maydonini taqdim etadi. Boshqa tomondan, global xavfsizlikka hissa qo‘shadi. Terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda a’zo davlatlarning kuchlarini birlashtiradi. Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-logistika aloqalarini rivojlantirish uchun qulay siyosiy-huquqiy zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi tuzilmaning faol va tashabbuskor a’zosi sifatida mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va hamkorlikni chuqurlashtirishga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Kengash doirasidagi faoliyat O‘zbekistonning ochiq tashqi siyosiy strategiyasiga to‘liq mos keladi. O‘zbekiston OHICHK maydonlarida bir qator muhim amaliy tashabbuslarni ilgari surmoqda. Masalan, tuzilmaning 2019-yil 15-iyun kuni Tojikistonning Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan 5-sammitida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, O‘zbekistonga ta’lim sohalari va madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi hamkorlikning muvofiqlashtiruvchisi rolini berish taklif qilindi. 2020-yil noyabr oyidan e’tiboran O‘zbekistonga insoniy o‘lchovdagi ishonch choralari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchilik roli yuklangan.

2022-yil oktyabr oyida Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan anjumanda esa davlatimiz rahbari mintaqa xavfsizligi, yosh avlodni radikalizmdan asrash, transport-logistika, raqamlashtirish, innovatsiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya va iqlim o‘zgarishlariga oid qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. -

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida Markaziy Osiyoda yaxlit xavfsizlik va hamkorlik muhitini yaratish orqali butun Osiyo qit’asida barqarorlikni mustahkamlash mumkin degan tamoyilga amal qiladi. Mamlakatimiz Osiyo davlatlarini bir-biri bilan bog‘lovchi “Shimol – Janub” va “Sharq – G‘arb” transport yo‘laklarini rivojlantirish, tranzit to‘siqlarini bartaraf etish masalalarini doimiy ravishda kun tartibiga qo‘yib kelmoqda. O‘zbekiston ekologik xavfsizlik va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha ham o‘z qarashlari va pozitsiyasiga ega. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik fojia oqibatlarini yumshatish bo‘yicha global sa’y-harakatlarni birlashtirishga chaqirib, OHICHK doirasida ham “yashil” iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalariga urg‘u bermoqda. Shuningdek, ekstremizm va radikalizmning oldini olishda yoshlar siyosati, ta’lim, ma’rifat va ma’naviy-madaniy aloqalarni kuchaytirish borasida ko‘plab takliflar ilgari surildi.

O‘zbekistonning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashdagi faol ishtiroki mintaqaviy va global miqyosda tinchlikparvar, tashabbuskor va ishonchli sherik sifatidagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirib, umumiy farovonlikka xizmat qilmoqda.

Aytish joizki, mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi ishonch xavfsizlik va barqarorlikning eng muhim shartidir. Biroq so‘nggi vaqtlarda dunyoda o‘zaro ishonch inqirozi kuzatilmoqda. Jahon kuch markazlari o‘rtasida raqobat kuchayib borayotgani va u hatto oshkora qurolli to‘qnashuvga aylanib ketish ehtimolini ham ayrim ekspertlar inkor etmayapti. Nazarimizda, ishonch inqirozini bartaraf etish va xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lida, birinchi navbatda, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, inson kapitalini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Shu munosabat bilan o‘zaro hurmat va jamoaviy mas’uliyatga asoslangan kengash faoliyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston qaysi minbardan bo‘lmasin, mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solish borasida muhim tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. 2019-yili Dushanbedagi sammitda ham, 2022-yili Ostonadagi uchrashuvda ham Prezidentimiz tinch Afg‘oniston Osiyo mintaqasidagi barqarorlikning muhim omili hisoblanishini yana bir karra urg‘uladi.



Xususan, birinchidan, O‘zbekiston Afg‘onistonda gumanitar inqirozning oldini olishga qaratilgan va uning yakkalab qo‘yilmasligiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi aytib o‘tildi. Tinchlik o‘rnatish va ushbu mamlakatda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish butun mintaqa uchun yangi strategik imkoniyatlar yaratadi. Afsuski, boshqa o‘tkir xalqaro muammolar qalqib chiqishi natijasida Afg‘oniston masalasi ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ushbu davlat amalda xalqaro terrorchilik makoniga aylanib qolgani bilan bog‘liq achchiq tajriba qayta takrorlanishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Afg‘on muammosi yuzasidan keng konsensusga erishish va global darajada amaliy chora-tadbirlarni qabul qilish maqsadida Osiyo mamlakatlarining BMT Bosh Assambleyasiga qo‘shma murojaati imkoniyatlarini ko‘rib chiqish taklif etildi.

> **“O‘zbekistonning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashdagi faol ishtiroki mintaqaviy va global miqyosda tinchlikparvar, tashabbuskor va ishonchli sherik sifatidagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirib, umumiy farovonlikka xizmat qilmoqda.”**

Ikkinchidan, yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratish, ularning radikallashuviga qarshi kurashish va sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosdagi qurolli mojarolar, qarama-qarshiliklar dunyo iqtisodiyotini tanazzul holatiga keltirmoqda. Shuning uchun, Osiyo davlatlari iqtisodiyotlarining global inqirozning o‘sib borayotgan salbiy oqibatlariga moslashuvi dolzarb vazifaga aylangan. Davlatimiz rahbari fikricha, proteksionizmning kuchayishiga, global bozorlarni beqaror qiladigan omillarni, jumladan, yangi cheklovlarning joriy etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, Osiyo qit’asida o‘zaro bog‘liqlikni, birinchi galda, ishlab chiqarish-logistika zanjirini, Markaziy Osiyoni Janubiy va Sharqiy Osiyo, shuningdek, Yaqin Sharq bilan samarali bog‘lovchi transport yo‘laklarini yaratish hisobiga kuchaytirish muhim.

Jahon sanoat inqilobi yangi bosqichiga o‘tmoqda. Uning asosi esa ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalardir. Sohani rivojlantirish barqaror taraqqiyotga tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlarda Osiyo mamlakatlari global yetakchilikka birgalikda erishish uchun barcha imkoniyatlarga ega.

Prezidentimiz Ostona sammitida yana bir dolzarb masalani ilgari surdi. U ham bo‘lsa, oziq-ovqat inqirozining oldini olish bilan bog‘liq. Yaxshi bilamizki, ayrim sabablarga ko‘ra sayyoramizda energiya resurslari va oziq-ovqat narxlari oshib ketdi. Qit’amizning ko‘plab davlatlari esa iste’mol mahsulotlarining asosiy import qiluvchilari hisoblanadi va tanasida oziq-ovqat inqirozining oqibatlarini juda o‘tkir his qilmoqda. Butunjahon oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hisob-kitoblariga ko‘ra, ochlikdan aziyat chekayotgan sayyoramiz aholisining yarmidan ko‘pi Osiyo qit’asida yashaydi. Qizig‘i shundaki, bir vaqtning o‘zida aynan Osiyo mamlakatlari jahonning yetakchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari oziq-ovqat ishlab chiqarishning barqaror tizimlarini va uni yetkazib berishning optimal zanjirini shakllantirish, ichki mintaqaviy savdo o‘sishi uchun texnik reglamentlarni uyg‘unlashtirish, Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligini monitoring qilish yaxlit tizimini yaratish masalasini ilgari surdi. Shubhasiz, oziq-ovqat narxlari barqarorligini saqlashning eng muhim omillaridan biri iqlimni, tabiatni asrash bilan bog‘liq.

Ozarbayjonning 2024 – 2026-yillardagi tashkilot faoliyatiga raisligi unga yangi nafas, amaliy mazmun va geosiyosiy dinamika olib kirmoqda. Zero, Ozarbayjon Sharq va G‘arb, Shimol va Janub chorrahasida joylashgan muhim tranzit xabidir. Bokuning OHICHKdagi raisligi davridagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri – “O‘rta yo‘lak” va “Shimol – Janub” koridorlarining geoiqtisodiy ahamiyatini oshirishga qaratildi. Ozarbayjon Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari) yuklarini Yevropa va Yaqin Sharq bozorlariga xavfsiz va tezkor yetkazib berish uchun OHICHK platformasidan transport tartib-taomillarini soddalashtirish va bojxona jarayonlarini raqamlashtirish maydoni sifatida foydalanmoqda.

OHICHK uzoq yillar davomida faqat konsultativ kengash (maslahat maydoni) bo‘lib kelgan. Qozog‘iston tomonidan boshlangan va Ozarbayjon raisligida davom ettirilayotgan muhim siyosiy jarayon – OHICHKni to‘laqonli, mustaqil va xalqaro maydonda nufuzli tashkilotga aylantirish. Ozarbayjon ushbu transformatsiya jarayoniga rahbarlik qilib, tuzilmaning institutsional poydevorini mustahkamlamoqda. Bu Osiyoning global siyosatdagi ovozini kuchaytiradi.

O‘z navbatida, Ozarbayjon Osiyo qit’asida suv resurslari taqchilligi, Kaspiy dengizi sathining pasayishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish va “yashil” texnologiyalarni joriy etish masalalarini OHICHKning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylantirdi.

Ozarbayjonning bunday nufuzli qit’aviy tashkilotga rahbarlik qilishi O‘zbekiston uchun o‘z mintaqaviy tashabbuslarini (masalan, Afg‘onistondagi barqarorlik, transport koridorlari, muhim minerallar alyansi) global kun tartibiga olib chiqish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Qolaversa, bu Osiyo va Kavkazni yagona geoiqtisodiy va xavfsizlik makoniga aylantirish, Osiyo qit’asidagi ishonch choralarini transport, energetika va ekologik loyihalar orqali mustahkamlash uchun tarixiy imkoniyatdir.

Ilhomjon TO‘XTASINOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori,
professor.

Biyennale

TOSHKENTDA JAHON SAN’ATI NAFASI



Poytaxtimizdagi Markaziy ko‘rgazmalar zalida o‘z ishini boshlagan XI Toshkent xalqaro zamonaviy san’at biyennalesi yurtimiz va xorijlik ijodkorlarni bir maydonda jamladi. “Voqealar gorizonti” deb nomlangan bu yilgi san’at anjumanida 33 mamlakatdan 70 nafar rassom va kurator o‘z asarlari bilan qatnashmoqda.

Ko‘rgazma zallarida rangtasvir va grafika asarlari, haykaltaroshlik namunalari, installyatsiyalar, videoart, fotoart hamda konseptual san’at yo‘nalishidagi ijodiy ishlar namoyish etilmoqda. Har bir asar – muallifning dunyoqarashi, zamonga munosabati va badiiy izlanishlarining o‘ziga xos ifodasi. Shu tariqa biyennale san’at ixlosmandlariga zamonaviy tasviriy san’atning turfa yo‘nalishlari bilan tanishish, milliy va jahon san’atidagi ijodiy jarayonlarni qiyoslash imkonini beradi.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tashabbusi bilan xorijiy mamlakatlarning yurtimizdagi diplomatik vakolatxonalari, vazirlik va idoralar hamda qator muassasalar hamkorligida tashkil etilayotgan mazkur biyennale xalqaro madaniy muloqotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.



Biyennale dasturi doirasida “Voqealar gorizonti” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilib, unda turli mamlakatlardan kelgan olimlar zamonaviy san’atning dolzarb masalalarini muhokama qiladi. Xorijlik rassom va kuratorlarning ma’ruzalari, mahorat darslari, kuratorlik loyihalari esa ishtirokchilar uchun tajriba almashish va yangi ijodiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatini yaratadi.

San’at ixlosmandlari tadbirlar davomida yurtimizning 40 nafar rassomi ijodi bilan ham yaqindan tanishishi mumkin. Bu esa milliy tasviriy san’atimizning bugungi qiyofasi, ijodkorlarimizning izlanishlari va zamonaviy badiiy tafakkurdagi o‘zgarishlarni kengroq anglashga xizmat qiladi.

Ko‘rgazmalar O‘zbekiston Badiiy akademiyasining “Akademiya” galereyasi, Markaziy ko‘rgazmalar zali, Toshkent fotosuratlar uyi, Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvonsaroyi, Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi hamda O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasida tashkil etiladi. Dasturdan Toshkent va Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar ham o‘rin olgan.

Shubhasiz, XI Toshkent xalqaro zamonaviy san’at biyennalesi turli madaniyatlar, badiiy qarashlar va ijodiy tajribalarni birlashtiruvchi xalqaro muloqot maydonidir. Bu yerda san’at asarlari orqali xalqlar bir-birini yaqinroq anglaydi, milliy meros va zamonaviy izlanishlar o‘rtasida yangi ma’no ko‘priklari barpo etiladi.

“Xalq so‘zi”.

YOSH MUHANDISLARIMIZ MUVAFFAQIYATI

1

Prezidentimizning “Robototexnika bo‘yicha xalqaro musobaqa g‘oliblari va ularning murabbiylarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoni tom ma’noda tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritgan va jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan O‘zbekiston terma jamoasi a’zolariga munosib rag‘bat bo‘ldi.



...Kuni kecha tun yarmidan oqqan bo‘lsa-da, Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti bayramona kayfiyatga burkandi. Zafar quchgan yosh qahramonlarimizni kutib olish uchun Yoshlar ishlari agentligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi mutasaddilari, keng jamoatchilik vakillari, OAV xodimlari hamda ota-onalar, ustozlar jam bo‘ldi.

Uchoq havo bandargohiga qo‘nib, kutib olish zali eshiklari ochilishi bilanoq gulduros olqishlar hamda karnay-surnay sadolari yangradi. Bo‘yinlarida zafar toji kabi yarqiragan medallar va qo‘llarida yurtimiz bayrog‘i bilan kirib kelgan yosh muhandislarni ko‘rib, yig‘ilganlarning qalbida cheksiz iftixor tuyg‘usi jo‘sh urdi.

Ota-onalarning jigarbandlarini bag‘riga bosishi, ustozlarning shogirdlari yelkasiga faxr bilan qoqib qo‘yishi hamda yoshlarning yuzidagi tabassumlar tarixiy va unutilmas manzarani yaratdi.

– Har bir daqiqa, har bir aniq hisob-kitob qilingan harakat ortida minglab soatlik mehnat, ustozlar o‘giti va yurt sha’nini baland tutishdek muqaddas mas’uliyat mujassam, – deydi robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi sardori, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi Ibrohim Salomov. – Inchxondagi musobaqa maydonida Vatanimiz nomi baralla yangrab, muzaffar bo‘lganimizni eshitgan payt ko‘nglimizda faxr va iftixor tuyg‘usini tuydik. Bu bizga ishonch bildirgan, duo qilib turgan xalqimiz, ustozlarimiz va ota-onalarimizning ham g‘alabasidir!

Darhaqiqat, yosh robototexniklarimizning xalqaro maydonda erishgan ushbu shonli muvaffaqiyati Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan Yangi O‘zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati naqadar baland ekani, jonajon Vatanimizda ertangi kunning yuqori texnologiyalarini yaratuvchi avlod ulg‘ayayotgani ifodasidir, desak, ayni haqiqat.

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq so‘zi”).

Yangi Toshkentni poytaxt bilan bog‘lash uchun Temur Malik ko‘chasi va “4R12” avtomobil yo‘li o‘rtasida ko‘prik, yo‘lo‘tkazgich hamda 10 kilometrlik yo‘l quriladi.

Uchrashuv

STRATEGIK SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Germaniya Bundestagining “GFR – Markaziy Osiyo” parlamentlararo hamkorlik guruhi rahbari Kristian Gyorke taklifiga binoan Berlin shahrida bo‘lib turibdi.

Tashrif doirasida Sodiq Safoyev Germaniya Federal Prezidentining tashqi siyosat bo‘yicha maslahatchisi Volfgang Zilberman bilan uchrashdi.

Suhbat chog‘ida ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar yuqori baholanib, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiy o‘sish va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotgani ta’kidlandi.

Uchrashuvda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamda investitsiyaviy munosabatlarni kengaytirish masalalariga e’tibor qaratildi. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik sohalaridagi hamkorlikni faollashtirish, nemis tilini o‘rganish imkoniyatlarini oshirish, ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, parlamentlararo aloqalar va hamkorlik bo‘yicha guruhlar faoliyatini kengaytirish masalalariga alohida urg‘u qaratildi.

Iqtisodiy yo‘nalishda “Volkswagen” va “Henkel” kompaniyalari ishtirokidagi sanoat loyihalari, investitsiyalarni jalb qilish, transport va raqamli infratuzilmani rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni hamda “Markaziy Osiyo – Germaniya” formatidagi sammitlarni davom ettirish zarurligi aytildi.

Xalqaro konferensiya

YADROVIY TEXNOLOGIYALARNI SANOATDA QO‘LLASH MAVZUSI – KUN TARTIBIDA

O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish, yadroviy texnologiyalardan iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda samarali foydalanish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining 70 yilligiga bag‘ishlangan “Yadro fani va uning tatbiq etilishi” mavzuida XII xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Ochilish marosimida Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov so‘zga chiqib, Yadro fizikasi institutining 70 yillik faoliyati davomida fundamental va amaliy fan rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasini, xususan, yadroviy tibbiyot, energetika, radiatsiyaviy xavfsizlik, ekologiya va sanoat sohalarida erishilgan ilmiy yutuqlarning ahamiyatini ta’kidladi.

Shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash va yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan ekani qayd etildi.

Konferensiyada o‘nlab davlatlardan 150 dan ortiq olim va mutaxassislar, shuningdek, mamlakatimizning turli hududlaridagi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalaridan 60 dan ziyod olimlar ishtirok etdi. Nazariy va eksperimental yadro fizikasi, yadroviy tibbiyot, radiatsiyaviy materialshunoslik, yadro energetikasi, ekologik xavfsizlik hamda yadroviy texnologiyalarni sanoatda qo‘llashga oid dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Anjuman kun tartibi doirasida 160 dan ortiq ilmiy ma’ruza va ishlar taqdim etildi.

“Xalq so‘zi”.

MINTAQAVIY KASBLAR ATLASI – INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Global iqtisodiyotda mamlakat raqobatbardoshligi, avvalo, inson kapitalining sifati, aholining bilim va malakasi, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Shu bois demografik salohiyatdan samarali foydalanish, ta’lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

Mulohaza



8-oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Mazkur taklif mehnat bozorining bugungi va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda mamlakatlar o‘rtasidagi kasbiy va ta’limiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mintaqaviy kasblar atlasi shunchaki kasblar ro‘yxati yoki statistik ma’lumotlar to‘plami bo‘lib qolmasligi kerak. U qaysi sohalarda qanday mutaxassislarga ehtiyoj ortishi, ulardan qaysi bilim va ko‘nikmalar talab qilinishi, ta’lim tizimi esa bu o‘zgarishlarga qay darajada tayyor ekanini ko‘rsatuvchi amaliy vositaga aylanishi lozim.

Buning uchun sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, logistika va xizmatlar sohasi bilan bir qatorda, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik va “yashil” texnologiyalar yo‘nalishlaridagi kadrlar ehtiyojini ham o‘rganish muhim.

Jahon iqtisodiy forumining “Kelajak kasblari – 2025” hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga qadar jahondagi tarkibiy va texnologik o‘zgarishlar natijasida 170 millionta yangi ish o‘rni yaratilishi, 92 millionta mavjud ish o‘rni esa qisqarishi prognoz qilinmoqda. Natijada sof hisobda 78 millionta ish o‘rniga teng o‘sish kutilyapti. Bu raqamlar mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni oldindan baholash, xodimlarni qayta tayyorlash va yangi kasblarga yo‘naltirish naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining yondashuvlarida ham mehnat bozori ma’lumotlarini tizimli tahlil qilish, ish beruvchilar ehtiyojlarini aniqlash va kasbiy tayyorgarlikni kelgusi talablarga moslashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, kasblar atlasini ishlab chiqishda davlat organlari, ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va ish beruvchilar hamkorligi hal etuvchi ahamiyatga ega. Chunki ta’lim dasturlari iqtisodiyot talablaridan ortda qolsa, bitiruvchilarning ish topishi qiyinlashadi, ayni paytda ish beruvchilar zarur mutaxassislarni izlashga majbur bo‘ladi. Atlas esa bu nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Demografik salohiyatni iqtisodiy natijaga aylantirishda yoshlarning o‘rni beqiyos. Biroq aholi sonining ko‘pligi o‘z-o‘zidan iqtisodiy o‘sishni ta’minlamaydi. Buning uchun sifatli ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, munosib bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarur.

Statistik ma’lumotlardan ayonki, joriy yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 14 dan 30 yoshgacha bo‘lganlar soni 9 654 351 kishini tashkil etdi va bu jami aholining 26,8 foiziga teng. Bu esa mamlakatimizda ulkan intellektual va mehnat salohiyati mavjudligini anglatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinsa, Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo yoshlar soni eng ko‘p viloyatlar hisoblanadi. Jizzax, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari esa aksincha.

Demak, hududlar o‘rtasida yoshlar soni bo‘yicha muayyan farqlarning mavjudligi kasbiy ta’lim va bandlik dasturlarini rejalashtirishda har bir hududning demografik xususiyatlari, iqtisodiy ixtisoslashuvi va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

Masalan, qaysi hududda ishlab chiqarish yoki xizmatlar sohasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa, o‘sha yerda yuqori talabdagi kasblar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Bu ta’lim muassasalari faoliyatini iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bog‘lash, yoshlarning bandligini oshirish va mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Shu jihatdan, mintaqaviy kasblar atlasi yoshlarning demografik salohiyatini aniq kasbiy yo‘nalishlar bilan bog‘lash imkonini yaratadi. U ta’lim yo‘nalishlarini takomillashtirish, kasbiy tayyorgarlikni maqsadli tashkil etish va kadrlarga talabni oldindan belgilash uchun muhim asos bo‘la oladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari aholining yosh tarkibi, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari va ta’lim tizimlari jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlarga ega. Bu imkoniyatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Jumladan, qo‘shma ta’lim dasturlari, akademik almashinuv, ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy tadqiqot loyihalari va kasbiy malaka hujjatlarini o‘zaro tan olish orqali mamlakatlar kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni kengaytirishi mumkin. Bunda har bir davlatning milliy manfaatlari, ta’lim tizimi va mehnat qonunchiligini hisobga olish muhim.

Atlasni samarali ishlab chiqish uchun, avvalo, kasblar va kompetensiyalarni tasniflashning umumiy metodologiyasini shakllantirish, mehnat bozori prognozlarini qiyoslash mezonlarini kelishib olish zarur. Shuningdek, demografik statistika, ta’lim muassasalari ma’lumotlari, ish beruvchilar so‘rovlari va bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi axborotni yagona tizimda birlashtirish lozim.

Hududiy inson kapitalini baholashga xizmat qiluvchi raqamli platformani yaratish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. U orqali kadrlarga talabning o‘zgarishini kuzatish, ta’lim infratuzilmasini baholash va investitsiya loyihalari uchun zarur mutaxassislarni oldindan tayyorlash imkoniyatlari kengayadi.

Ayni paytda bunday tizim bir martalik loyiha bo‘lib qolmasligi kerak. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, texnologik yangilanishlar va demografik tendensiyalar asosida ma’lumotlar muntazam yangilanib, prognozlar amaliyotdagi natijalar bilan taqqoslab borilishi zarur.

Demak, talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasi demografik salohiyatni inson kapitaliga aylantirish, ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, yoshlar bandligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita bo‘lishi mumkin. Uning samaradorligi esa ishonchli ma’lumotlar, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik, ta’lim muassasalari va ish beruvchilarning faol ishtiroki hamda qabul qilingan qarorlarning amaliy ijrosiga bog‘liq.

Chunki demografik imkoniyatlarning iqtisodiy qudratga aylanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Buning uchun inson kapitaliga izchil sarmoya kiritish, yoshlarga zamonaviy kasblarni egallash imkonini yaratish va mehnat bozori ehtiyojlarini oldindan hisobga olish zarur. O‘zbekiston ilgari surayotgan tashabbusning strategik ahamiyati ham mintaqaning demografik salohiyatini bilim, malaka, innovatsiya va barqaror iqtisodiy o‘sish manbaiga aylantirishda namoyon bo‘ladi.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

PARLAMENTLARARO MULOQOTNI CHUQURLASHTIRISH E’TIBORDA

Oliy Majlis Senatida “O‘zbekiston – Kipr” hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhining onlayn uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat o‘rtasidagi parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiya, ta’lim, turizm, raqamlashtirish va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni kengaytirish masalalari e’tibor markazida bo‘ldi.

Hamkorlik

Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, guruhlar yig‘ilishlarini muntazam o‘tkazish va tegishli qo‘mitalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhimligini ta’kidladi. Qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish va imzolangan hujjatlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Muloqot davomida ta’lim, turizm va madaniyat yo‘nalishlarida ham hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga e’tibor qaratildi. Kipr tomoni ajratayotgan stipendiyalar va malaka oshirish dasturlaridan samarali foydalanish, madaniy merosni saqlash va tiklash bo‘yicha tajriba almashish, o‘zaro turistik oqimlarni ko‘paytirish masalalari bo‘yicha fikr almashildi.

Uchrashuvda tomonlar O‘zbekiston va Kipr o‘rtasidagi hamkorlikning katta salohiyatga ega ekanini aytib, o‘zaro aloqalarni kelgusida ham izchil davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

“Xalq so‘zi”.

Senator va yoshlar

NAVQIRON AVLOD GIYOHVANDLIKKA QARSHI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi a’zosi Ikromxon Najmiddinov Namangan shahridagi 31-umumta’lim maktabida tashkil etilgan yoshlar festivalida qatnashdi.

Festival doirasida yoshlarni turli salbiy illatlardan asrash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “Biz giyohvandlikka qarshimiz!” shiori ostida aksiya o‘tkazildi. Unda senator mutasaddilar bilan birga giyohvandlikning inson salomatligi va kelajagiga salbiy ta’siri, uning og‘ir oqibatlari hamda bunday illatlarning oldini olish masalalari yuzasidan fikr bildirdi.

Tadbirda, shuningdek, yoshlar bandligini ta’minlash va ularni kasb-hunarga yo‘naltirishga bag‘ishlangan mehnat yarmarkasi ham tashkil etildi. Unda ikki mingga yaqin maktab bitiruvchilari va uyushmagan yoshlar bo‘sh ish o‘rinlari va ishga joylashish imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi.

Festival yakunida yigit-qizlarning tashabbus va salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni ezgu maqsadlar sari ruhlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom avlodni kamol toptirish muhimligi ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

DAROMADGA YO‘L OCHGAN IMKONIYATLAR

Bundan besh yil avval Jizzax viloyatining Yangiobod tumanidagi Balandchaqir mahallasida istiqomat qiluvchi Nilufar Mamadaliyeva oilasi boshiga kulfat tushdi: ularning uyi butunlay yonib kulga aylandi. Fevralning sovuq kunlarida yosh farzandlari bilan hech narsasiz qolishgani uni va turmush o‘rtog‘ini gangitib qo‘ydi.

Mahalliy Kengashlarda

Bobolar aytadiki, “El bor bo‘lsa, er xor bo‘lmas”. Yosh oila bu sinov bilan yolg‘iz qolib ketmadi. Mahalla-ko‘y, qavm-u qarindoshlar, tuman hokimligi sa’y-harakati bilan roppa-rosa bir oy muddat ichida to‘rt xonali uy yangidan qurib bitkazildi, uning bir xonasi yashash uchun taxt holatga keltirildi.

– Oilamiz boshiga sinovli kunlar tushganida mahalladoshlarim-u qarindoshlar mehr-oqibatini, davlatimiz g‘amxo‘rligini chin yurakdan his etdik, – deydi Nilufar Mamadaliyeva. – Bu yaxshiliklarni kun kelib mehnatim bilan qaytaraman deb niyat qilgan edim. Shu sababli, mahalladan nogironligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmati tashkil etish taklifi tushganida, hech ikkilanmay rozi bo‘ldim. Nogironligi bor bolalar ham xuddi sog‘lom bolalar kabi mehr, e’tibor, tarbiya va rag‘batga muhtoj. Asosiysi, bu faoliyat ortidan ham ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ham daromad topish imkoni paydo bo‘ldi.

Balandchaqir mahallasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va yangi daromad manbalarini yaratishga qaratilgan mazkur tashabbus orqali 3 ta ish o‘rni yaratildi. Ayni paytda mazkur muassasada imkoniyati cheklangan 7 nafar bola parvarish qilinmoqda.

– Prezidentimizning “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida mazkur xizmat hududlarda keng joriy etilmoqda, – deydi xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashi deputati, mahalla xotin-qizlar faoli Zulfiya Abduraimova. – Bu orqali birinchi galda nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalarning mehnat qilishiga to‘siq bo‘luvchi sabablar bartaraf etilib, ularning ishlashi uchun sharoit yaratilyapti. Eng asosiysi, bolalarning oila qaramog‘ida qolishi ta’minlanib, ijtimoiy yetimlik, ya’ni bolaning ota-onasi hayot bo‘laturib, ularning parvarishi, tarbiyasi va moddiy ta’minotidan mahrum bo‘lishining oldi olinmoqda. Yana bir muhim jihati, mazkur xizmatni tashkil qilgan fuqaro va ishga jalb etilgan xodimlar uchun barqaror daromad manbai yaratilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda 30 600 nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Yangiobod tumanida aholi bandligini ta’minlash, fuqarolarga doimiy va barqaror daromad manbalarini yaratish, kambag‘allikdan chiqarish hamda turmush farovonligini oshirish borasida tizimli va manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mavjud 8 ta mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holat o‘rganilib, ishsiz va daromad manbaiga ega bo‘lmagan fuqarolar aniqlanmoqda, ularning muammolarini hal etish choralari ko‘rilyapti. Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, tomorqa va yer maydonlaridan samarali foydalanish, chorvachilik hamda boshqa faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yish, barqaror daromad manbaini yaratish orqali ishsizlik masalasi hal etilmoqda. Bunday sa’y-harakatlar natijasida tumanda yil boshidan beri 226 ta oila kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 5,8 foizdan 3,7 foizga tushirildi.

Ushbu yo‘nalishda islohotlar izchilligini ta’minlashda tuman Kengashi deputatlarining munosib hissasi bor. Ular aholi bilan bevosita uchrashuvlar, fuqarolar murojaatlarini o‘rganish orqali bandlik bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganib, tumanda daromad manbalarini kengaytirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqmoqda. Xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashi kotibiyati mudiri, deputat Valijon Hasanovning ma’lum qilishicha, birgina “Havotog‘” QFYda o‘tkazilgan o‘rganishlarda 32 nafar ishsiz fuqaro aniqlanib, ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilgan. Jumladan, 20 nafar fuqaro fermer xo‘jaliklariga, 3 nafari esa hududdagi 11-umumta’lim maktabiga ishga joylashtirilgan. Yoki qishloqning Beshtom ko‘chasida yashovchi Navro‘z Donayev bo‘sh turgan binoda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yib, o‘zi va oila a’zolarining bandligini ta’minladi.

– Oilada yolg‘iz boquvchi bo‘lganim uchun qanday qilib mablag‘ topish, daromadimni oshirish, uy-ro‘zg‘or xarajatlariga yetkazish doimiy o‘yim edi: musofirchilik zahmatiniyam ko‘rdim. Yetishmovchilik ortidan maishiy muammolar bo‘lib turgani ham sir emas, – deydi yosh tadbirkor. – Oshpazlikda o‘n ikki yillik tajribam bor. Shu hunarimdan unumli foydalanib, oshxona xizmatini yo‘lga qo‘ydim. Ishli odamning ro‘zg‘ori but, niyati katta, kelajakka ishonchi baland bo‘lishini o‘z hayotimda ko‘rdim. Endi ham daromad topyapmiz, ham xalqimizga nafimiz tegyapti.

Tuman qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali daromad manbalarini kengaytirish masalasi ham deputatlar e’tiborida. Masalan, Qo‘shqand qishlog‘ida yashovchi Zuhra Toshpo‘latovaga “Abdulaziz – Muyassar” fermer xo‘jaligidan 2 gektar yer maydoni ajratib berilishi natijasida oilaviy daromadi oshgan bo‘lsa, Abdulla Ma’murovga 2 bosh naslli qoramol xaridi uchun kredit hujjatlari rasmiylashtirilishi unga chorvachilikdan qo‘shimcha mablag‘ topish imkonini berdi.

15-“Pastki Sarmich” saylov okrugidan saylangan deputat Sobir Hojiyevning fikricha, manzilli ishlarning asl maqsadi ijtimoiy reestrda turuvchi fuqarolarni daromadli mehnatga jalb etishga qaratilgan. Deputatning bevosita ko‘magi bilan ijtimoiy reestrda turuvchi Najmiddin Halimovga “Baxt baraka” MCHJ tomonidan 5 gektar yer maydoni ajratib berildi. Fuqaro ushbu yer maydonida poliz ekinlari yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi, natijada daromad topish imkoniyatlari oshdi. Yana bir ijtimoiy reestrda turuvchi fuqaro Ravshan Sangilov “Sarmich gulshani” fermer xo‘jaligiga doimiy ishga jalb qilindi va barqaror daromadga ega bo‘ldi.

Keltirilgan misollar tumanda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirishda manzilli yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad – ishsiz fuqaroni vaqtinchalik qo‘llab-quvvatlash emas, balki uning o‘z mehnati va mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalana olishiga ko‘maklashish. Chunki aholini kambag‘allikdan chiqarish bir kunlik ish yoki bir martalik yordam berish bilan yechim topadigan masala emas. Buning uchun vaqt, imkoniyat va eng muhimi, ishonch kerak. Ahamiyatlisi, bir fuqaroning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratilayotgan bo‘lsa, yana biri xotin-qizlarning kasb-hunar egallashiga sababchi bo‘lmoqda. Yer va chorvachilik imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali ijtimoiy reestrda turuvchi fuqarolar ish bilan ta’minlanmoqda. Zero, inson uchun eng keraklisi, bu o‘z mehnati bilan oilasini boqishi, ertasidan xotirjamligidir. Oilaboshining doimiy ishi va munosib daromadi ro‘zg‘ordagi tinchlik, osoyishtalikning kaliti.

Dilnoza HAYITOVA
(“Xalq so‘zi”).

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar IT-xizmatlar eksportini 5 mlrd. dollarga yetkazish hamda sohada 300 mingdan ziyod yoshlar bandligini ta’minlash rejalashtirilgan.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 14-oktabr

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IJTIMOIY-IQTISODIY MASALALARNING HUQUQIY ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga, intellektual mulkning huquqiy muhofazasini kuchaytirishga, harbiy xizmatni o‘tash tartibi va sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari, shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masalalar muhokama qilindi. Kun tartibidagi ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas’ul qo‘mitalar, ishchi guruh yig‘ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha ko‘rib chiqilgani qayd etildi.



Qonun loyihasi takomillashtiriladigan bo‘ldi

Majlisda dastlab davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda moddama-modda muhokamadan o‘tkazildi.

Ushbu hujjat davlat xaridlari bo‘yicha shaffoflikni ta’minlash va raqobat muhitini kengaytirish, xarid tartib-taomillarini xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini mazkur jarayonda yanada faol ishtirok etishga keng jalb qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida davlat xaridlariga taalluqli shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilanmoqda. Bu esa sohada hisobdorlik va nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida xarid tartib-taomillariga oid normalar o‘zaro muvofiqlashtirilib, ayrim qoidalarning mazmuni aniqlashtirilgani va qator tahririy tuzatishlar kiritilgani aytildi. Xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, takroriy xaridlarda yagona ishtirokchi bilan bog‘liq tartiblarni aniq belgilash hamda davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan normalar takomillashtirilgani urg‘ulandi.

Deputatlar loyiha yuzasidan ayrim takliflarini bildirdi. Xususan, takroriy auksion, tanlash va tenderlarda yagona ishtirokchi bilan bog‘liq tartiblarni aniq belgilash, byudjet buyurtmachilarining davlat xaridlarida preferensiya qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan mahalliy subyektlar doirasini kengaytirish shular jumlasidan.

Shuningdek, davlat xaridlariga taalluqli huquqiy normalarning o‘zaro muvofiqligi va bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash, amaliyotda turlicha talqin etishga sabab bo‘ladigan nomuvofiqliklarga yo‘l qo‘ymaslik zarurligi aytildi.

Bildirilgan taklif-tavsiyalardan so‘ng qonun loyihasi mas’ul qo‘mita – Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan yanada takomillashtiriladigan bo‘ldi.

Intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda yangi imkoniyatlar

Deputatlar intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

Ushbu hujjat sohada huquqiy himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan xizmat vazifalarini yoki xizmat topshirig‘ini bajarish tartibida yaratilgan asarlar, jumladan, adabiy, ssenariy, musiqali, xoreografiya, audiovizual, arxitektura, dizayn kabi asarlarga bo‘lgan mulkiy huquqlarni tartibga solishda tomonlarning shartnomaviy erkinligi ta’minlanmoqda. Xususan, xizmat asarlariga oid mulkiy huquqlarning o‘n yildan keyin avtomatik ravishda muallifga o‘tishi haqidagi norma bekor qilinib, mazkur munosabatlarni shartnoma asosida belgilash nazarda tutilmoqda.

Hujjatda intellektual mulk obyektlari bo‘yicha davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bo‘lgan shaxslarga Apellyatsiya kengashiga murojaat bilan bir qatorda, bevosita sudga murojaat etish huquqi berilmoqda. Bu fuqarolar va tadbirkorlarning sud orqali o‘z huquqlarini himoyalash imkoniyatini kengaytirib, buzilgan huquqlarni tiklashga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi bilan ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutuqlariga oid patentlarning amal qilishini saqlash uchun davlat bojini oldindan to‘lash imkoniyati ham yaratilmoqda. Bu huquq egalari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, patentlarning texnik sabablarga ko‘ra amaldan chiqib ketishining oldini olish hamda intellektual mulk obyektlaridan samarali foydalanishni ta’minlashga imkon beradi.

Shuningdek, loyiha bilan Fuqarolik kodeksi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”, “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”, “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida” va “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar ko‘tarildi. Jumladan, Apellyatsiya kengashida apellyatsiyani ko‘rib chiqish yuzasidan taklif etilayotgan muddatlarga e’tibor qaratildi.

Zafar XUDOYBERDIYEV,
O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi:



– Qonun loyihasining 1-moddasi bilan “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunning 21, 22, 23, 27-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar taklif etilyapti. 21 va 22-moddalarda Apellyatsiya kengashi apellyatsiya kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko‘rib chiqishi amaldagi tahrirda ham bor edi va bu qonun loyihasida ham saqlanib qolyapti.

Aniqlik kiritilishi kerak bo‘lgan jihat 23-modda bilan bog‘liq. Bu moddada amaldagi tahrirda “Apellyatsiya kengashi apellyatsiya kelib tushgan sanadan e’tiboran to‘rt oy ichida uni ko‘rib chiqishi lozim” edi. Taklif etilayotgan normada esa bu muddat ham 21 va 22-moddalardagidek ikki oyga tushirilyapti. Nima uchun 21 va 22-moddalardagi muddatlar o‘zgartirilmagani holda 23-moddada amaldagi to‘rt oylik muddat ikki oyga tushirilyapti?

Qonun loyihasi tashabbuskorlari ushbu savolga javob berib, hujjatni ikkinchi o‘qishga tayyorlashda bildirilgan fikrlar inobatga olinishini aytishdi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza va himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahalliy hamda xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibi o‘zgartirilmoqda

Majlisda O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuniga harbiy xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

U O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tashning nufuzi va jozibadorligini oshirish, malakali harbiy kadrlarni tayyorlash hamda ularning salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan.

Loyiha bilan oliy harbiy, shuningdek, xorijiy oliy harbiy ta’lim muassasalarining uchuvchi mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilari bilan yangi shartnoma tuzishning huquqiy asoslarini belgilash taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, respublika kitobxonlik tanlovida yuqori natijalarga erishgan muddatli harbiy xizmatchilarning xizmat muddatini bir oyga qisqartirishni nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilmoqda.

Muhokama jarayonida mazkur rag‘batlantirish chorasi harbiy xizmatchilar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib etish, ularning ma’naviy-intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Kozimjon TOJIYEV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib, unda belgilanayotgan yangi normalar yuqori malakali uchuvchi mutaxassislarning kasbiy salohiyatidan samarali foydalanish, ularning ko‘p yillik tayyorgarligi va tajribasini harbiy aviatsiyani yanada rivojlantirishga yo‘naltirish hamda Qurolli Kuchlarning professional salohiyatini yuksaltirishga imkon beradi.

Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Sanoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi nazorat kuchaytiriladi

Majlisda sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat xavfsizligini ta’minlash borasida ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashib borishi sanoat xavfsizligi qoidalari va huquqiy mexanizmlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariyalar va baxtsiz hodisalarning oldini olish, davlat nazorati samaradorligini oshirish hamda sohadagi mas’ul subyektlarning javobgarligini aniq belgilash nazarda tutilmoqda.

Loyiha bilan Jinoyat kodeksiga xavfli ishlab chiqarish hamda potensial xavfli obyektlarda sanoat xavfsizligi talablarini buzganlik, fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga zarar yetkazish bilan bog‘liq holatlar uchun qat’iy jazo choralarini belgilashni nazarda tutuvchi normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, sanoat xavfsizligi talablariga rioya etmaslik, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida davlat nazoratini yuritmaslik hamda avariyalarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik ko‘rish talablarini bajarmaganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jarima jazosini qo‘llash va takroriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish taklif qilinmoqda. Bundan tashqari, sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, vakolatli organlarning vazifa va vakolatlarini aniq belgilash, ularning huquqiy maqomini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar ham nazarda tutilmoqda.

Majlisda qayd etilganidek, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi sanoat xavfsizligini ta’minlashda davlat nazorati samaradorligini oshirishga hamda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya va baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining dolzarbligi va sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratdi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish – muhim vazifa

Deputatlar investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L. Qudratovga “Hududlarda chet el investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini monitoring qilish, investitsiyaviy samaradorlikni baholash va investorlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida” parlament so‘rovini yuborish haqidagi masalani ko‘rib chiqdi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, investorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ular bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, hududlarda chet el investitsiyalari ishtirokidagi loyihalarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish, ularning ijrosida yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor aniqlash va bartaraf qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, investitsiya loyihalarini g‘oya bosqichidan ishga tushirilgunga qadar yagona yondashuv asosida kuzatib borish, yer maydoni ajratish, zarur infratuzilma bilan ta’minlash, ruxsat berish jarayonlaridan o‘tish va boshqa bosqichlarda yuzaga kelayotgan to‘siqlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi raqamli va tashkiliy mexanizmlarning amaldagi samaradorligini baholash zarur. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalarning huquqiy asoslari va boshqaruv modelini takomillashtirish, ularda investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish, rezidentlarni zarur infratuzilma bilan ta’minlash, ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarda xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish va loyihalar ijrosini nazorat qilish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, investitsiyalarning hudud iqtisodiyoti va inson kapitali rivojiga ta’sirini oshirish hamda eksportbop korxonalarni manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan investitsiyalar, sanoat va savdo vaziriga parlament so‘rovi yuborildi.

Agentlik direktoriga parlament so‘rovi yuborildi

Majlisda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktori Sh. Hasanovga “Chiqindilarni boshqarish, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ushbu sohada ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida” parlament so‘rovini yuborish haqidagi masala ham ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, xususan, chiqindilarni boshqarish, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mazkur sohada ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Jumladan, 2019 – 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi tasdiqlandi. Prezidentimizning sohaga oid qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarini ko‘rsatuvchilarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga umumiy qiymati 386,5 mlrd. so‘m miqdoridagi investitsiya mablag‘lari yo‘naltirilgan.

Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash, jumladan, qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish yo‘nalishida amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, Toshkent shahri hamda Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida umumiy qiymati 933 mln. AQSH dollaridan ziyod bo‘lgan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlarda olib borayotgan o‘rganishlari mazkur sohada qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, rekultivatsiya ishlarini belgilangan muddatlarda yakunlash bilan bog‘liq kechikishlar kuzatilmoqda. Ayrim chiqindi poligonlarini ekologik normativlar, sanitariya qoidalari va normalari hamda yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqlashtirish zarurati mavjud.

Bundan tashqari, joylarda sohada yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, xususan, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifati yuzasidan ham ayrim fuqarolar tomonidan murojaatlar bo‘lmoqda.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, chiqindilarni boshqarish, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ushbu sohada ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish haqida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktoriga parlament so‘rovi yuborildi.

“Xalq so‘zi”.

Parlament diplomatiyasi

XALQARO ALOQALARNING YANGI BOSQICHI

Bugun O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi va tashabbuskorligi parlamentlararo hamkorlikda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Tanzaniyaning Arusha shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik va barqaror taraqqiyot masalalarini muhokama qilishga qaratilgan muhim maydon bo‘ldi. Dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlaridan 700 ga yaqin parlament vakillari ishtirok etgan anjumanda O‘zbekiston delegatsiyasi ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ustuvor tashabbuslar va xalqaro hamkorlikka doir yondashuvlarni ilgari surdi.



Assambleya davomida mamlakatimiz haqidagi iliq fikrlar va amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga bildirilgan qiziqish Yangi O‘zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganini ko‘rsatdi. Bunday e’tirof, avvalo, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, inson qadrini ulug‘lash, ochiqlikni ta’minlash va xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan siyosatning natijasidir. Yurtimizning bugungi qiyofasi, jamiyat hayotidagi yangilanishlar va xalqaro hamkorlikka ochiqligi xorijiy sheriklarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

O‘rni kelganda ta’kidlash joizki, iqlim o‘zgarishi va resurslar tanqisligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi global barqarorlikning muhim omili sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Assambleya doirasida o‘tkazilgan “Dasturxonimizda nima bor? O‘zgaruvchan iqlim sharoitida sog‘lom oziq-ovqat bilan ta’minlash” mavzuidagi seminarda oziq-ovqat ta’minoti, qishloq xo‘jaligining barqarorligi va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari muhokama qilindi.

Bu borada O‘zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi hamda “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun ushbu yo‘nalishdagi huquqiy asoslarni mustahkamlamoqda. 2025-yilda mamlakatimizning meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 3,2 mlrd. AQSH dollariga yetgani, qishloq xo‘jaligida 50 mln. tonna oziq-ovqat mahsuloti yetishtirilgani sohadagi o‘zgarishlarning amaliy ifodasidir.

Muhokama davomida oziq-ovqat mahsulotlarining aholi uchun hamyonbopligini ta’minlash, hududlarda uzluksiz ta’minotni yo‘lga qo‘yish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va iqlim o‘zgarishiga chidamli ekin navlarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlandi. Shuningdek, “aqlli” qishloq xo‘jaligi yechimlari, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mahsulotlarni saqlash va tashishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, mintaqaviy logistik hamkorlikni kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratildi. Bu takliflar qishloq xo‘jaligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Assambleya doirasida qator mamlakatlar parlamentlari va xalqaro tuzilmalar vakillari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar ham o‘tkazildi. Malayziya, Marokash, Belarus, Gruziya, Iordaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Qatar va Ozarbayjon bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va ta’lim sohalaridagi hamkorlik istiqbollariga urg‘u berildi. O‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, tajriba almashish va mavjud salohiyatdan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, tadbirlar doirasida Qo‘shilmaslik harakati Parlament tarmog‘ining muvofiqlashtiruvchi yig‘ilishida ishtirok etdik. Unda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish, Parlamentlararo Ittifoq prezidenti saylovi arafasida pozitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, aholini ijtimoiy himoya qilish, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi. Tadbirda O‘zbekistonning 2027 – 2029-yillarda Qo‘shilmaslik harakatiga raislik qilishi munosabati bilan kelgusi hamkorlik yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratildi.

Arushadagi assambleya Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faol ishtiroki va konstruktiv yondashuvini yana bir bor namoyon etdi. Mamlakatimizning ochiq tashqi siyosati, islohotlarga sodiqligi va global muammolarga hamkorlik asosida yechim topishga qaratilgan intilishi xalqaro muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Muhimi, bu jarayonda O‘zbekiston o‘z taraqqiyot tajribasini taqdim etish bilan birga umumiy barqarorlik, insonparvarlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ham ilgari surmoqda.

Manzura SALIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Sloveniya Respublikasi bandlik xizmati hamda ushbu mamlakat hunarmandchilik va kichik biznes palatasi vakillaridan iborat delegatsiya Samarqand shahridagi kasbiy ko‘nikmalar markazida Migratsiya agentligi viloyat hududiy filiali mas’ullari bilan uchrashdi.

SUD MUSTAQILLIGI – ADOLAT VA TARAQQIYOT KAFOLATI

Huquqiy demokratik davlatning eng muhim belgilari, shak-shubhasiz, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishi, jamiyatda qonun ustuvorligining izchil ta’minlanishi hamda sud hokimiyatining tom ma’noda mustaqil va xolis faoliyat yuritishidan iborat.

Zero, davlatning qonunchilik tizimi va normativ-huquqiy bazasi mukammal, xalqaro andozalarga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lishi bilan birga, uning amaliyotga qanday tatbiq etilishi va buzilgan huquqlarni qay darajada samarali tiklash mumkinligi, avvalo, mustaqil, xolis va adolatli sud tizimiga bevosita bog‘liq. Sud mustaqilligi ta’minlangan jamiyatdagina fuqaro o‘z huquq va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyalanganiga ishonadi, tadbirkor o‘z faoliyatini barqaror va uzoq muddatli rejalashtira oladi, davlat organlari esa o‘z qaror va harakatlarining qonunga muvofiqligi uchun mas’uliyatni chuqur his etadi. Shu ma’noda, sud mustaqilligi faqat sud tizimining ichki masalasi emas, balki mamlakat taraqqiyoti, ijtimoiy ishonch va iqtisodiy barqarorlikning muhim huquqiy shartidir.

Nuqtai nazar

Yuksalishning yettita milliy dasturi

Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini kelgusi bosqichga olib chiqishga qaratilgan yettita milliy dastur ilgari surildi.

Beshinchi milliy dastur – sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, uning ahamiyati shundaki, bu maqsad faqat sud-huquq tizimi oldiga qo‘yilgan alohida vazifa sifatida emas, balki davlat va jamiyat hayotining barcha sohasiga daxldor umumiy taraqqiyot omili o‘laroq belgilandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu strategik dastur doirasida huquqiy tarbiyani maktab ostonasidan boshlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining qonuniy kafolatlarini kuchaytirish, zamon tahdidi bo‘lgan kiberjinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosi kabi illatlarning oldini olish, jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan yashirin iqtisodiyot hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurashish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish bo‘yicha sud-huquq tizimi hamda jamiyat oldiga juda ulkan va konseptual vazifalar belgilab berildi.

Sud mustaqilligini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirish missiyasi shuni anglatadiki, bundan buyon qonunga hurmat bilan qarash va sudning mustaqilligini tan olish jamiyatning har bir a’zosi, har bir mansabdor shaxs va davlat organi uchun bosh tamoyil – kundalik ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi lozim. Buning uchun esa, o‘z navbatida, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda fuqarolarga har qanday qonun buzilishi holatlariga nisbatan murosasiz munosabatni singdirish talab etiladi.

Ta’kidlash joizki, sud hokimiyatining mustaqilligi inson huquq va



erkinliklarining mustahkam kafolati bo‘lishidan tashqari, davlat va jamiyat, xalq bilan davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning tayanch ko‘prigi hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonning dastlabki o‘n yilligida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy hamda sud-huquq islohotlari natijasida sudlarning mustaqilligini ta’minlashning huquqiy asoslari yangi bosqichga olib chiqildi, sudya maqomining daxlsizligi kuchaytirildi va odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi.

Hozirda esa sud hokimiyati mustaqilligining mohiyatini chuqurlashtirish va ahamiyatini mustahkamlash darkor. Shunga ko‘ra, Prezidentimizning 2026-yil 14-avgustdagi farmoni bilan tasdiqlangan “Odil sudlov – 2030” strategiyasi sud mustaqilligini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga olib chiqishning kompleks dasturiga aylandi. Ushbu strategiyada alohida belgilangan “Adolat qo‘rg‘oni” ustuni doirasida inson huquqlari ustuvorligini ta’minlaydigan, har qanday ta’sir, bosim va noqonuniy aralashuvlardan xoli, chinakam mustaqil odil sudlov tizimini bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi. Shunday ekan, bugungi taraqqiyot bosqichida sud mustaqilligiga inson huquqlarini himoya qilishning eng asosiy hamda bosh konstitutsiyaviy kafolati sifatida qarash lozim. Zero, xalqaro maydonda tan olingan Sudyalar axloqining Bangalor prinsiplarida ham sud mustaqilligi huquq ustuvorligining zarur sharti va adolatli sudlovning muhim kafolati sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, unda sud hokimiyatining institutsional mustaqilligini ta’minlash zarurligi alohida ko‘rsatilgan.

Sud hokimiyatining institutsional mustaqilligi, avvalo, uning moliyaviy mustaqilligini ham ta’minlashni taqozo etadi. Shu maqsadda 2026-yil 11-sentyabrda “Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, sudlar faoliyatini faqat Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish, ajratiladigan mablag‘lar odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish uchun yetarli bo‘lishini ta’minlash hamda sudyalar hamjamiyati organlarining mablag‘larni shakllantirish va ichki taqsimlash jarayonida bevosita ishtirok etishiga qaratilgan yangi mexanizm belgilandi. Mazkur qonun sud mustaqilligining moliyaviy kafolatlarini mustahkamlab, sud hokimiyatini Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirishning barqaror va mustaqil tizimini shakllantirishga asos soldi.

Shuningdek, yaqinda jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra, sud ishlariga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Xususan, sudyaga yoki xalq maslahatchisiga muayyan ishni xolis ko‘rib chiqishga to‘sqinlik yoki adolatsiz sud hujjati qabul qilinishiga erishish maqsadida qonunga xilof ta’sir o‘tkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi aniq belgilab qo‘yildi. Mazkur norma sud mustaqilligi himoyasining muhim kafolati bo‘lib, sudlarning obro‘sini oshirish va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda ekan, kelgusi o‘n yillik sud hokimiyatining institutsional salohiyati va mustaqilligini izchil rivojlantirishni talab qiladi. Bunda sudyalarning kasbiy va shaxsiy daxlsizligini ta’minlash, sud hokimiyatining o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish, sudlar hamda sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining ochiqligi va institutsional mas’uliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, chinakam xalqchil va adolatli sud hokimiyati mustaqil fikrlaydigan, yuksak kasbiy hamda axloqiy salohiyatga ega, ochiqlik va mas’uliyat asosida faoliyat yuritadigan sudyalar korpusidan iborat.

Qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy ishonch ham yuksaladi. Bu, ayniqsa, fuqarolar hamda tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tadbirkor o‘z mulki daxlsizligiga, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishiga hamda nizo yuzaga kelgan taqdirda uning huquqlari mustaqil va xolis sud tomonidan samarali himoyalanishiga ishonch hosil qilgandagina uzoq muddatli rejalar tuzadi, investitsiya kiritadi hamda ish o‘rinlari yaratadi. Shuning uchun sud himoyasining samaradorligi nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy muhitning barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu boradagi islohotlarning asosiy mezoni sudga murojaatning osonligi yoki sud jarayonining tezligi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Eng muhimi, inson hamda tadbirkor o‘z huquqi buzilganida uni tiklashning aniq va samarali mexanizmi mavjudligini his etishi, sud qarorining qonuniy, adolatli va asoslantirilganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

> ***Prezidentimizning 2026-yil 14-avgustdagi farmoni bilan tasdiqlangan “Odil sudlov – 2030” strategiyasi sud mustaqilligini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga olib chiqishning kompleks dasturiga aylandi. Ushbu strategiyada alohida belgilangan “Adolat qo‘rg‘oni” ustuni doirasida inson huquqlari ustuvorligini ta’minlaydigan, har qanday ta’sir, bosim va noqonuniy aralashuvlardan xoli, chinakam mustaqil odil sudlov tizimini bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi. Shunday ekan, bugungi taraqqiyot bosqichida sud mustaqilligiga inson huquqlarini himoya qilishning eng asosiy hamda bosh konstitutsiyaviy kafolati sifatida qarash lozim.***

Ayni maqsad “Odil sudlov – 2030” strategiyasining mazmunida ham o‘z ifodasini topgan. Unda odil sudlov natijasi, avvalo, fuqaroning sudga ortiqcha ovoragarchiliksiz murojaat qila olishi, buzilgan huquqining o‘z vaqtida tiklanishi va chiqarilgan qarorning adolatli ekaniga ishonch hosil qilishi bilan bog‘langan.

Demak, kelgusi davrda sud-huquq islohotlarining markazida protsessual mexanizmlarni takomillashtirish bilan bir qatorda sud himoyasining real samaradorligini oshirish, davlat organlari qarorlari ustidan sud nazoratini kuchaytirish, huquqlarni tiklashning amaliy imkoniyatlarini kengaytirish va sud qarorlarining ijrosini ta’minlash kabi masalalar turishi lozim.

Qonunga hurmat huquqiy madaniyatdan boshlanadi va insonning kundalik hayotida shakllanadi. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan huquqiy tarbiyani maktabdan boshlash vazifasining belgilanishi beshinchi milliy dasturning uzoq muddatli hamda strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Huquqiy ta’limning asosiy maqsadi bolaga qonun moddalarini yodlatish emas, balki unda huquq va majburiyatlarini anglash, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, qonun asosida qaror chiqarish hamda nizolarni huquqiy yo‘l bilan hal etish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, maktablarda huquqiy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lagan holda o‘qitish, o‘quvchilarga o‘z huquqlari bilan birga majburiyatlarini ham tushuntirish, sud jarayoni, shartnoma, mulk huquqi, mehnat munosabatlari va internetdagi xavfsizlik kabi masalalarni amaliy misollar asosida o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Huquqiy oliy ta’lim muassasalarida yuridik klinikalar faoliyatini kengaytirish, aholi uchun sodda va tushunarli tilda huquqiy maslahat berish amaliyotining qamrovini oshirish hamda tushuntirish materiallarini ko‘paytirish ham ushbu jarayonning uzviy qismi hisoblanadi. Bunday yondashuv qonun ustuvorligini har bir insonning kundalik hayotida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy qadriyat sifatida qaror toptirishga xizmat qiladi.

Yangi tahdidlarga nisbatan zamonaviy yondashuv

Bugungi tahlikali zamonning shaxdam raqamlashtirish jarayonlari hamda yangi qiyofa kasb etayotgan globallashuv sharoiti kiberjinoyatchilik, elektron to‘lovlar bilan bog‘liq firibgarlik, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy egallash, odam savdosi hamda giyohvandlik kabi jinoyatlarning oldini olishda yangi yondashuvlarni taqozo qilmoqda.

Bunda sud va huquqni muhofaza etuvchi organlarning samarali faoliyati bilan bir qatorda, aholining huquqiy hamda raqamli savodxonligini oshirish, xavflarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, zamonaviy raqamli dalillar bilan ishlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla hamda tegishli davlat organlarining hamkorligi tizimli yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Odam savdosiga qarshi kurashda esa fuqarolarni mehnat migratsiyasiga chiqishdan oldin ularning huquq va majburiyatlari, shartnomaviy munosabatlar hamda xorijda huquqiy himoyadan foydalanish imkoniyatlari haqida xabardor qilish kabi profilaktik choralarni kuchaytirish bunday illatlarning oldini olishda o‘z samarasini berishi mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashish ham mamlakatimizdagi asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu borada narkotiklarning noqonuniy aylanmasi hamda narkojinoyatlarga qarshi keskin choralar bilan birgalikda muammoning ildizlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktika ishlarini kuchaytirish ham alohida o‘ringa ega.

O‘zbekistonning Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib voyaga yetmaganlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va narkotiklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha boshqarmasining “CHAMPS” tashabbusiga qo‘shilgani mazkur yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi.

O‘z navbatida, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish ham qonun ustuvorligining muhim ko‘rsatkichidir. Bu sohada huquqbuzarliklarga nisbatan samarali huquqiy ta’sir choralari bilan birga, jabrlangan shaxslarni muhofaza etish, ularga zarur yordam ko‘rsatish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvni kuchaytirish lozim.

Shu ma’noda, Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalarning asosiy maqsadi huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan omillarni o‘z vaqtida aniqlash, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish hamda jamiyatda qonunga hurmat muhitini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sud mustaqilligi huquqning amalda himoya qilinishi uchun zarur institutsional kafolat, qonun ustuvorligi esa davlat va jamiyat hayotida barqaror qoidalarning ta’minlanishini kafolatlovchi asosdir. Huquqiy madaniyat ushbu qadriyatlar insonlarning ongiga uqtirilishini ta’minlaydi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi natijasida shaxs, davlat hamda jamiyat o‘rtasida ishonch mustahkamlanadi.

Shu bois kelgusi o‘n yillikda sud-huquq sohasidagi islohotlarning samarasi yangi qonunlar va institutlarning inson hayotida qanday natija berayotgani bilan baholanadi. Zero, “Sud mustaqilligi – adolat kafolati” degan ezgu g‘oya Yangi O‘zbekistonning istiqboldagi milliy yuksalish davrida nafaqat sud tizimining, balki butun davlat hamda jamiyat rivojining muhim dasturilamali bo‘lib xizmat qiladi.

Robaxon MAHMUDOVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy sudi raisi.

“OLDINDA BIZNI ULKAN ZAFARLAR KUTIB TURIBDI”

Prezidentimiz Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida Nukus shahridagi “Coals KS” korxonasi faoliyati bilan yaqindan tanishganidan xabardorsiz. Unda yangi investitsiya loyihalari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash evaziga kengaytirish hamda shu orqali yangi ish o‘rinlari ochish borasida olib borilayotgan dastur taqdimoti ham bo‘lib o‘tgan edi.

Intilish

O‘shanda davlatimiz rahbari Anvar Shukurovning keng tarmoqli tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yib, ko‘plab muhim investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotganini alohida e’tirof etib, uni faxriy unvon bilan taqdirlash haqida aytib o‘tgandi.

Oradan ko‘p o‘tmay, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni qabul qilinib, “Qoraqalpoq sement” MCHJ ta’sischisi Anvar Shukurovga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator” faxriy unvoni berildi. Mazkur yuksak mukofotni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Raisi Amanbay Orinbayev tantanali ravishda topshirdi.

– Prezidentimizning korxonamizga tashrifi bizga katta kuch-quvvat berdi va kasbimizga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularini yanada mustahkamladi, – deydi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator Anvar Shukurov. – Muloqot chog‘ida korxonada amalga oshirilayotgan ishlar, ishlab chiqarish quvvatlari, yangi investitsiya loyihalari hamda istiqboldagi rejalar haqida fikrlashdik. Prezidentimiz ish jarayoniga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga qiziqish bildirib, korxonani kelgusida yanada rivojlantirish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar berdi. Endilikda oldimizda turgan asosiy vazifa – ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, mahsulotlar turi va sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish. Oldinda hali bizni katta zafarlar kutib turibdi.



Ayni paytda “Coals KS” korxonasida gazoblok va ohak ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Gazoblok ishlab chiqarish quvvati yiliga 300 ming kub metr, ohak ishlab chiqarish quvvati esa 165 ming tonnani tashkil etadi. Ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish va mahalliy xomashyodan samarali foydalanish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish asosiy vazifa etib belgilangan.

Korxona bugungi natijalar bilan cheklanib qolmayapti. Hozir yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilishga qaratilgan qator loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Xususan, umumiy qiymati 38 mln. dollar bo‘lgan to‘rtta yangi loyiha – o‘g‘it, kalsiy, chorva ozuqasi ishlab chiqarish zavodlari hamda maxsus sement tayyorlash zavodi bo‘yicha qurilish ishlari boshlangan. Bu loyihalar doirasida 590 ta ish o‘rni yaratiladi.

Shuningdek, korxona faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari ham keng. Kogeneratsiya majmuasi, issiqxona va quyosh fotoelektr majmualari, big-beg qoplar, fibrotsement plitalar hamda shisha kristolit ishlab chiqarish zavodlari, “A-380” magistral yo‘li yoqasida kemping majmuasi hamda ayollar va bolalar uchun maxsus fitnes-sog‘lomlashtirish markazini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Joriy yil Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami arafasida ishga tushirilgan gazoblok ishlab chiqarish korxonasida ish uch smenada tashkil etilgan. Har smenada 40 nafar ishchi mehnat qiladi. Olis hududlardan kelib ishlayotganlar uchun yotoqxona, transport xizmati yaratilgan, xodimlar uch mahal issiq ovqat bilan ta’minlanmoqda.

– Korxonamizda 150 nafar ishchi mehnat qilmoqda. Ularning asosiy qismini yoshlar va mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan mahalliy aholi vakillari tashkil etadi, – deydi “Coals KS” MCHJ texnologi Azizbek O‘rozboyev. – O‘zim 2023-yilda Qoraqalpoq davlat universitetini sanoat texnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha tamomlaganman. Mana, yangi korxonada o‘z mutaxassisligim bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etib, bilim va tajribamni oshirishga harakat qilyapman.



Korxonada sutkasiga 700 – 800 kub metr hajmda gazoblok ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlar Qoraqalpog‘istondagi buyurtmachilardan tashqari qo‘shni viloyatlarga yetkazib berilmoqda.

Prezidentimizning korxona faoliyatiga alohida e’tibor qaratishi, yangi investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashi va tadbirkor mehnatining davlat mukofoti bilan e’tirof etilishi jamoa zimmasidagi mas’uliyatni yanada oshirmoqda.

G‘ayrat OTAJONOV
(“Xalq so‘zi”).

15-oktyabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni munosabati bilan Suv xo‘jaligi vazirligida “Suv xo‘jaligi sohasining ayoli – 2026: Kasbim – faxrim” tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 14-oktabr







YANGI O‘ZBEKISTONNING SHAHARSOZLIK MEGALOYIASI

1 Prezidentimiz tashrif chog‘ida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan sarmoyador va tadbirkorlar bilan muloqot qildi.

Uch yil oldin poydevori qo‘yilgan ushbu global shaharsozlik tashabbusi doirasida davlat infratuzilma, muhandislik tarmoqlari, yirik stadion, universitet hamda kutubxona kabi ijtimoiy-madaniy obyektlarga ulkan mablag‘lar yo‘naltirdi.

Qayd etilganidek, hozirga qadar hududga 2 mlrd. dollardan ziyod investitsiyalar kiritildi. Davlatimiz rahbari bajarilayotgan ishlar salmog‘ini e’tirof etish bilan birga, mavjud sustlik hamda nomutanosibliklarni ham ochiq ko‘rsatib o‘tdi. Xususan, yangi shahar uchun jami 20 ming gektar yer ajratilgan. Birinchi bosqichda 6 ming gektarda 50 mlrd. dollarlik loyihalarni ro‘yobga chiqarish ko‘zda tutilgan. Yangi xalqaro aeroport barpo etilishi bilan hududning umumiy investitsiya salohiyati 200 mlrd. dollargacha yetishi mumkin. Ayni paytda esa ming gektardan ziyod maydonda, asosan, davlat mablag‘lari hisobidan qurilish ketmoqda, xususiy sektor hamda tadbirkorlarga esa bor-yo‘g‘i 94 gektar yer ajratilgan xolos.

Vaholanki, Yangi Toshkent faqat yangi uy-joy quriladigan hudud emas. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bu yer zamonaviy biznes, ta’lim, tibbiyot, turizm va xizmat ko‘rsatishni o‘ziga jalb etadigan mustaqil iqtisodiy markazga aylanishi kerak. Ammo bugungi kunda ajratilgan yerlarning uchdan ikki qismi faqat ko‘p qavatli uy-joylarga to‘g‘ri kelayotgani iqtisodiy ekotizim balansini buzmoqda. Shaharga yuqori daromadli ish o‘rinlari, xizmatlar va biznes makonlari ham zarur.

Master-reja bo‘yicha yondashuv o‘zgaradi

Xalqaro tajribadan ma’lumki, investor hech qachon kutmaydi. U ko‘mak va kafolat sezmasa, mablag‘ini boshqa bozorga yo‘naltiradi. Shu sababli tadbirkorga yer ajratishdan boshlab, loyihani ishga tushirishgacha bo‘lgan butun zanjir tubdan yengillashtirilishi aytildi.

Ayniqsa, master-reja bo‘yicha yondashuv o‘zgaradi. Ya’ni agar investor taklif etayotgan noyob loyiha shahar manfaatiga xizmat qilsa, lot maydoni yoki obyekt turini moslashuvchan tarzda o‘zgartirishga to‘siq qo‘yilmasligi kerak. Hujjatlari, konsepsiyasi hamda qurilish ruxsatlari oldindan tayyor bo‘lgani uchun katta qiziqish uyg‘otgan “Sankt-Peterburg” mavzesi tajribasi asosida barcha investorlarga tayyor lotlar paketini taqdim etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Yangi Toshkentning istiqboli porloq ekani bozorning o‘zida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Agar 2024-yilda hududda 1 gektar yerning o‘rtacha qiymati 10 mlrd. so‘mga yetmagan bo‘lsa, bugunga kelib bu ko‘rsatkich 19 mlrd. so‘mga yetdi. Yil yakuniga qadar shaharda 20 mingta xonadonni foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda. Bu kamida 70 ming nafar aholi uchun yangi hayot muhiti yaratiladi degani. Davlatimiz rahbari ushbu hududga aholi ko‘chib kelishi bilan bir vaqtda ular uchun maktab, bog‘cha va poliklinikalar, savdo, sport hamda ko‘ngilochar markazlar, dam olish bog‘lari va umumiy ovqatlanish tarmoqlari tayyor bo‘lishi shartligini aytdi.

Hududda xalqaro FIFA talablariga to‘liq javob beradigan 55 ming o‘rinli muhtasham stadion barpo etilmoqda. U kelasi yili 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatining markaziy arenalaridan biriga aylanadi. Minglab xorijiy mehmonlar va muxlislar tashrifini inobatga olgan holda arena atrofida mehmonxonalar, restoran hamda kafelar tarmog‘ini barpo etish bo‘yicha aniq hisob-kitoblar ishlab chiqilib, tadbirkorlarga ochiq va shaffof tanlov asosida taqdim etiladi.

Yana bir yangilik – shaharning ishbilarmonlik hamda ma’muriy faolligini shakllantirishda davlat idoralari yetakchi bo‘ladi. Ayni paytda bir nechta vazirliklar hududdagi ixcham binolarda o‘z faoliyatini boshladi, 2,6 ming xodimga mo‘ljallangan yana 9 ta bino qad rostlayapti. Qolgan vazirlik va davlat tashkilotlari ham Yangi Toshkentga bosqichma-bosqich ko‘chiriladi.

Yangi Toshkent loyihasi mamlakatimizning bosh shaharsozlik megaloyihasi bo‘lishi bilan birga milliy va xalqaro kapital uchun Markaziy Osiyodagi eng jozibador iqtisodiy ekotizimga aylanayotgani ham e’tiborga molik. Ilgari surilgan tashabbuslar esa faqatgina shaharsozlik rejalari emas, balki har bir insonning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy qadamlardir. Infratuzilma to‘lovlarining keskin kamaytirilishi, tadbirkorlar uchun byurokratik to‘siqlarning olib tashlanishi hamda “Swiss challenge” tizimining joriy etilishi va boshqa chora-tadbirlar fikrimizning yaqqol tasdig‘i.

Xo‘sh, “Swiss challenge” tizimi nima



o‘zi? Bugungi kunga qadar sotilgan 54 ta lotdan atigi uchtasida loyiha qiymati 100 mln. dollardan oshadi. Shaharga esa uning xalqaro qiyofasini belgilab beruvchi noyob, yirik tijorat obyektlari, betakror me’moriy majmualar hamda osmono‘par biznes markazlari kerak. Bu borada shaffoflik va raqobatni ta’minlash maqsadida ilg‘or xalqaro tajriba – ochiq tashabbus hamda “Swiss challenge” tamoyili joriy etilmoqda.

Bunda investor o‘z g‘oyasini ochiq taqdim etadi va loyiha ommaviy e’lon qilinadi. Agar belgilangan muddatda boshqa da’vogarlar bundan yaxshiroq va foydaliroq shart taklif etmasa, yer maydoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri birinchi tashabbuskorga ajratiladi. Shuningdek, dunyoning yetakchi arxitektorlari tomonidan ishlab chiqilgan eksklyuziv loyihalar uchun “yashil yo‘lak” ochiladi. Loyihalashdan tortib foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan jarayonlar soddalashtirilib, bir xil hujjatni qayta-qayta talab qilishga chek qo‘yiladi.

Hududiy integratsiya mexanizmi

Ta’kidlash joizki, ko‘p qavatli turarjoy qurish bilan shahar aholisiga xizmat qiladigan mehmonxona, savdo markazi yoki madaniy inshoot barpo etishning iqtisodiy xarajati va qayta qoplanish muddati bir xil emas. Bu muhim hayotiy farqni inobatga olgan holda Prezidentimiz infratuzilma to‘lovlarining bazaviy stavkalarini tubdan qayta ko‘rib chiqdi. Madaniy va ko‘ngilochar maskanlar uchun to‘lovlar 10 barobar, mehmonxona va turizm obyektlari uchun 5 karra, savdo, servis va biznes markazlari uchun 3 barobar kamaytiriladi, xususiy bog‘cha, maktab va tibbiyot maskanlari uchun ramziy ma’noda atigi 1 foiz etib belgilanadi. Eng muhimi, ushbu yengilliklar nafaqat yangi, balki qurilishi boshlab yuborilgan loyihalarga ham tatbiq etiladi.

Qiymati 50 mln. dollardan oshadigan strategik investorlar bilan ishlashda hamrohlik tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Har bir yirik loyihaga muayyan davlat mas’uli biriktirilib, u obyekt to‘liq ishga tushgunga qadar yuzaga keladigan har qanday muammoni joyida bartaraf etadi. Investorning majburiyatlariga mos ravishda individual imtiyozlar va kafolatlar paketi hukumat bilan tuziladigan alohida bitimda mustahkamlanadi.

Yangi poytaxt imkoniyatlari faqat markaz tadbirkorlari bilan cheklanib qolmasligi zarur. Butun mamlakat ishbilarmonlarini ushbu megaloyihaga

> ***“Yangi Toshkent loyihasi mamlakatimizning bosh shaharsozlik megaloyihasi bo‘lishi bilan birga milliy va xalqaro kapital uchun Markaziy Osiyodagi eng jozibador iqtisodiy ekotizimga aylanayotgani ham e’tiborga molik. Ilgari surilgan tashabbuslar esa faqatgina shaharsozlik rejalari emas, balki har bir insonning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy qadamlardir. Infratuzilma to‘lovlarining keskin kamaytirilishi, tadbirkorlar uchun byurokratik to‘siqlarning olib tashlanishi hamda “Swiss challenge” tizimining joriy etilishi va boshqa chora-tadbirlar fikrimizning yaqqol tasdig‘i.”***

birlashtirish maqsadida mutlaqo yangi hududiy integratsiya mexanizmi joriy etildi. Toshkent shahrining har bir tumaniga 100 gektardan yer biriktirildi. Respublikaning qolgan 13 ta ma’muriy hududiga ham 100 gektardan yer ajratildi. Va bu yerlar bo‘yicha o‘tkaziladigan birinchi auksionlarda faqat o‘sha hududning mahalliy tadbirkorlari ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. Mazkur hududlarga jalb qilingan barcha investitsiya hamda yaratilgan ish o‘rinlari bevosita o‘sha viloyat yoki tumanning iqtisodiy ko‘rsatkichida hisobga olinadi. Bu viloyatlardagi kapitalni kengaytirish va hududiy tadbirkorlarning poytaxt megabozorida o‘z marralarini egallashi uchun bebaho imkoniyatdir.

Yangi Toshkent bugun xalqaro sarmoyadorlar diqqat markazida. Shu bois chet ellik yirik kompaniyalar uchun dastlabki 50 ta eng jozibador lot ajratildi. Loyihaviy hisob-kitoblar, infratuzilma qulayliklari va berilayotgan kafolatlarni o‘z ichiga olgan tayyor investitsiya paketlari maydonga jalb etilishi Yangi Toshkentni mamlakatimiz iqtisodiyotining qudratli lokomotiviga aylantirishi shubhasiz.

Yaqin kelajakda iqtisodiy rivojlanish modeli

Prezidentimizning Yangi Toshkentda investor va tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti qurilish yoki shaharsozlik masalalari bilan chegaralanib qolgani yo‘q. Bu uchrashuv mamlakatimizning yaqin kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish modelini, davlat va xususiy kapital o‘rtasidagi ishonch poydevorini hamda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy sarmoyaviy mafkurasini belgilab bergan konseptual voqelik bo‘ldi. Davlatimiz rahbari investorlarga yaratilayotgan sharoitlar qog‘ozda emas, real hayotda ishlashi shartligini qat’iy ta’kidlab, sohadagi eskirgan qarashlarni parchalab tashlaydigan muhim g‘oyalarni ilgari surdi.

Uchrashuvning eng ta’sirli jihati, davlatimiz rahbarining sarmoyadorlarni “xorijlik” va “mahalliy” deb toifalarga ajratishga bildirgan munosabati bo‘ldi: “Kapitalning, ilg‘or g‘oyaning va halol mehnatning millati yo‘q”, dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun mutlaqo yangi milliy g‘oya – “O‘Z” falsafasini e’lon qildi. Ushbu qisqa, ammo sermazmun so‘z zamirida to‘rtta ulkan tayanch tushuncha mujassam.

Birinchisi, O‘zbekiston – barchamizning mushtarak taraqqiyot makonimiz.

Ikkinchisi, o‘zgarish – ortga qaytmas islohotlar va yangilanishlar shiddati.

Uchinchisi, o‘zlik – milliy g‘urur va zamonaviy bunyodkorlik uyg‘unligi.

To‘rtinchisi, mas’uliyat – davlat va investorning kelajak oldidagi javobgarligi.

Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, kimki yurtimizga sarmoya kiritib, zamonaviy texnologiya olib kelsa va odamlarga ish o‘rni yaratsa, qaysi mamlakat yoki shahardan kelganidan qat’i nazar, umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Kimki Yangi Toshkentni yoki Shirinni biz bilan birga qursa, demak, u to‘laqonli o‘zimizniki. Eng asosiysi, davlatimiz rahbari har bir sarmoyadorning mulki, huquqi hamda biznesi qonun, davlat va shaxsan Prezidentning qat’iy himoyasida bo‘lishini yana bir bor kafolatladi.

Muloqotda tadbirkorlar tomonidan ko‘tarilgan har bir muammo va taklif bo‘yicha tez kunlarda Prezidentimiz qarori qabul qilinishi belgilandi.

Yangi Toshkent – milliy iqtisodiyotimizning yangilash dvigateli, millatning yangi o‘zligi va kelajak avlodlarga qoldiriladigan buyuk meros. Shu bois uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari barcha sarmoyador hamda ishbilarmonlarni yangi milliy maqsad va da’vat atrofida birlashishga chaqirdi. “O‘z g‘oyang! O‘z sarmoyang! O‘z kelajaging! Yangi O‘zbekiston, Yangi Toshkent – o‘zimizniki!” degan ezgu shior har bir yurtdoshimizning, fidoyi investor hamda shijoatli tadbirkorlarning yurak amriga, ertangi kunga mustahkam ishonchi ifodasiga aylanishi kerakligini urg‘uladi. Zero, bugun amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari Vatanimizni yanada yuksak taraqqiyot marralariga yetaklashi muqarrar.

G‘afurjon MUHAMEDOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi.





ZAMONAVIY BUNYODKORLIK NAMUNASI

Davlatimiz rahbarining Yangi Toshkentda amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishib,investorlar bilan o‘tkazgan samimiy muloqoti mamlakatimizda shaharsozlikka yondashuv yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

Hududda shu paytgacha 2 mlrd. dollardan ortiq investitsiya o‘zlashtirilgani, umumiy qiymati 1 mlrd. dollarlik yettita obyekt foydalanishga topshirilgani hamda yana 2,5 mlrd. dollarlik o‘nta yirik loyiha qurilishiga start berilgani mazkur jarayonning ko‘lami naqadar kengligini aks ettirayotir. Ayniqsa, zamonaviy energiya tizimlari, muhandislik tarmoqlari, yashil hududlar, ta’lim muassasalari va transport infratuzilmasining barpo etilishi yangi shaharning uzoq muddatli rivojlanishi uchun asos yaratadi.

Mazkur loyihaning eng muhim jihatlaridan biri – iqtisodiy o‘sish bilan insonlar uchun qulay yashash muhitini o‘zaro uyg‘unlashtirishga intilish bilan bog‘liq. Yangi Toshkentda 2 ming gektar yashil maydon hamda 500 gektar istirohat bog‘larini tashkil etish, chiqindilardan elektr energiyasi olish, quyosh panellaridan



foydalanish kabi tashabbuslar shahar rivojida muhim o‘rin egallaydi. Bunday yondashuvda qurilish hajmidan tashqari, yaratilayotgan muhitning sifati, ekologik barqarorligi va aholiga qulayligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Prezidentimizning investorlar bilan muloqotida xususiy sektor faolligini oshirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bu juda muhim. Nega deganda, yirik shaharni barpo etishda davlat infratuzilmani yaratib berishi bilan birga, xususiy investitsiyalar uchun ham aniq hamda barqaror sharoitlar shakllantirilishi zarur. Yer ajratish, ruxsat olish va loyihalarni ishga tushirish jarayonlarining shaffofligi investorlarga ishonch beradi, sog‘lom raqobatni kuchaytirib, iqtisodiy faollikni oshiradi.

E’tiborlisi, xizmat ko‘rsatish, turizm, biznes markazlari, xususiy maktab, bog‘cha va shifoxonalar uchun infratuzilma to‘lovlarini kamaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu imkoniyatlar amalda yangi korxonalar tashkil etilishi, ish o‘rinlari ko‘payishi hamda aholining sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayishiga zamin yaratadi.

Yangi Toshkent iqtisodiy imkoniyatlaridan poytaxt tadbirkorlari bilan birga, yurtimizning boshqa hududlaridagi ishbilarmonlar ham foydalanishi ko‘zda tutilmoqda. Bu tenglik, shaffoflikning bir ko‘rinishi, albatta. Hududlar tadbirkorlariga yer maydonlari ajratilishi bo‘yicha belgilangan yondashuv hududlararo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va investitsiya faolligini mamlakat bo‘ylab rag‘batlantirish nuqtayi nazaridan ham g‘oyatda ahamiyatli.

Biz, xalq vakillari ushbu jarayonlarda qonunchilikni takomillashtirish, investorlarga yaratilgan imkoniyatlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari va shaharsozlik talablari o‘zaro uyg‘un ishlashini ta’minlashimiz zarur. Shu bilan birga qurilish sifati, ekologik talablar, transport qulayligi, ijtimoiy infratuzilma hamda fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalari ham doimiy e’tiborda bo‘ladi.

Yangi Toshkentning jozibadorligi bu yerda qancha yangi ish o‘rni ochilgani, aholi uchun qanday sharoitlar yaratilgani va tadbirkorlarga qanchalik qulay iqtisodiy muhit yuzaga kelgani bilan baholanadi. Shu ma’noda, bugun boshlangan loyihalarning izchil amalga oshirilishi mamlakatimizda zamonaviy shaharsozlik madaniyati hamda yangi iqtisodiy markazlarni rivojlantirish uchun muhim tajriba bo‘lib xizmat qiladi.

Oybek YO‘LDOSHEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida maishiy chiqindilarni ekologik xavfsiz qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish va muqobil energiya ishlab chiqarishga qaratilgan innovatsion loyiha amalga oshiriladi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI:
XALQCHIL ISLOHOTLAR VA HAYOTBAXSH NATIJALAR

Bugun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 645 milliondan ortiq odamlar ochlikdan aziyat chekmoqda. Xalqaro ekspertlar agar tezkor va tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, bu raqam 2028-yilga borib 1 milliardga yetish ehtimoli katta ekanidan ogohlantiryapti. Chunki iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilikning tez-tez takrorlanishi, suv tanqisligi kabi ekologik muammolar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa, transport-logistika zanjiridagi uzilishlar oziq-ovqat va iste’mol tovarlarining narxi oshishiga olib kelmoqda. Ushbu ko‘p qirrali masalani hal etish, muammo ta’sirlarini yumshatish davlatlar, olimlar va xalqaro tashkilotlar yaqin hamkorlikda, o‘zaro birdamlikda chora-tadbirlar ko‘rishini taqozo etadi.

Yuksalish odimlari

Toshkent shahrida joriy yilning 7-8-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan Xalqaro paxta kuni hamda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar ana shunday maqsadga qaratilgani tufayli jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanib, katta aks sado berdi. Mazkur yirik forumlarda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlaridan taniqli olim va ekspertlar, tadbirkorlar, shuningdek, ko‘plab xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdiki, bu poytaxtimiz xalqaro agrar muloqotlar markaziga aylanganining yorqin isboti bo‘ldi.

“Agricola” – ezgu tashabbuslar e’tirofi

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, ichki bozorni sifatli va arzon mahsulotlar bilan barqaror ta’minlash, ayni paytda eksport hajmini oshirib borish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bois islohotlarning yangi davrida, avvalo, qishloq xo‘jaligi sohasi diversifikatsiya qilindi, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rildi. Natijada yer va suv cheklangan bir sharoitda tabiiy va moddiy resurslar tejalgan holda, barakali hosil olinmoqda. Buni Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 538,9 trillion so‘mni tashkil etib, avvalgi yildagiga nisbatan 4,4 foiz o‘sdi. Ayniqsa, paxta, poliz ekinlari, don mahsulotlari yetishtirishda yuqori o‘sish sur’atlari ta’minlangani alohida e’tiborga molik.

Sohadagi ushbu yutuqlar bilan cheklanib qolinmasdan yanada katta



marralar olinmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2030-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobar, eksport va qo‘shilgan qiymatni 3 karra oshirish rejalashtirilgan. Bunga erishish uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik kuchaytirilyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 6-oktyabr kuni BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dunyuyni qabul qildi. Muloqotda O‘zbekiston bilan BMTning mazkur nufuzli tuzilmasi o‘rtasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha strategik sheriklikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

So‘nggi yillarda yangi besh yillik dastur qabul qilingani, 27 ta qo‘shma loyiha faol bosqichga kirgani amaliy sheriklik doirasi kengayib borayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Istiqbolda yangi hamkorlik dasturini samarali amalga oshirish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va sohaga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, iqlim moliyasi mablag‘larini jalb qilish, tajriba almashish hamda mutaxassislar tayyorlash kabi yo‘nalishlarda istiqbolli qo‘shma loyihalar portfelini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Eng quvonarlisi, Syuy Dunyuy Yurt-boshimizga FAOning oliy mukofoti – “Agricola” medalini topshirdi. 1977-yilda ta’sis etilgan ushbu medal ochlikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi umuminsoniy maqsadlarga erishish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan hamda hayotiy choralarni amalga oshirgan atoqli arboblarga beriladi. Shu ma’noda bu e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ezgu tashabbuslari hamda erishgan yutuqlari xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinganining amaliy tasdig‘i bo‘ldi.

Forumlarda Xalqaro paxta maslahat qo‘mitasi (ICAC) ijrochi direktori Erik B. Traxtenberg, Jahon savdo tashkiloti







(WTO) bosh direktori o‘rinbosari Jan-Mari Pogam Prezident Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo‘jaligidagi hayotiy islohotlarini yuqori baholar ekan, paxtachilikda majburiy va bolalar mehnatiga barham berilganini olqishladi, qisqa davrda paxta xomashyosini eksport qiluvchidan uni chuqur qayta ishlab, tashqi bozorda tayyor va yarimtayyor mahsulot chiqarayotgan davlatga aylanganini oqilona iqtisodiy siyosat samarasi, deb atadi.

Buyuk xalq, buyuk tarix, buyuk uyg‘onish

Poytaxtimizda ICAC hamda FAO bilan hamkorlikda tashkil etilgan nufuzli xalqaro anjumanlar nafaqat agrooziq-ovqat sanoatidagi yutuqlar, balki yurtimizning boy tarixi, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar mevalarini yana bir bor namoyon qilishga qulay imkoniyat yaratdi. Bu yerda gap forum ishtirokchilari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, hayrat va havas og‘ushiga tushib qolgani haqida ketmoqda.

FAO bosh direktori Syuy Dunyuy boshchiligidagi delegatsiya davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bunyod etilgan ushbu markazga tashrifi chog‘ida Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalar bo‘limidagi Buyuk Ipak yo‘li ekspozitsiyasi bilan yaqindan tanishar ekan, paxtachilikka bag‘ishlangan installyatsiya mehmonlar e’tiborini tortdi. Sababi unda paxta Hindiston orqali Markaziy Osiyoga, keyinchalik esa Xitoyga kirib borgani haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bir qarashda oddiy qishloq xo‘jaligi ekini tarixidek ko‘ringan bu voqelik ortida qadimiy savdo yo‘llari va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mujassam.

Tashrif yakunida Syuy Dunyuy janoblari “Faxriy mehmonlar” kitobiga O‘zbekiston haqidagi taassurotlarini bayonlar ekan, jumladan, shunday so‘zlarni yozib qoldirdi: “O‘zbekistonga hurmat bajo keltiraman! Buyuk xalq, buyuk tarix, buyuk sivilizatsiya, dunyoning gavhari, buyuk uyg‘onish!” Xalqaro paxta maslahat qo‘mitasi ijrochi direktori Erik B. Traxtenberg esa markaz ekspozitsiyalarida O‘zbekiston tarixining jahon sivilizatsiyalari bilan mushtarak jihatlari katta taassurot qoldirganini alohida ta’kidladi.

FAO bosh direktorining Toshkent davlat agrar universitetiga tashrifi muhim tadbirlardan biri bo‘ldi. Unda agrar ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishlariga moslashish hamda agrar soha istiqbolida yosh mutaxassislarning o‘rni yuzasidan fikr almashildi. BMTning mazkur tashkiloti bilan hamkorlikni rivojlantirishga oid takliflar bildirildi.

Syuy Dunyuy universitet hududida ko‘chat ekish tadbirida ishtirok etib, nihol qadagani zamirida ham ramziy ma’no bor. Ko‘chat kun sayin chuqur ildiz otib, ko‘kka bo‘y cho‘zgani kabi hamkorlik aloqalarimiz ham tobora mustahkamlanib, yanada kengayib boraveradi.

Ilm-fan – taraqqiyot kaliti

Prezidentimiz Xalqaro paxta kuni hamda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida aytilganidek, o‘zbek dehqonlari paxtachilik bo‘yicha ulkan tajribaga ega. Keyingi yillarda amalga oshirayotgan tub islohotlarimiz tufayli bu soha yangi bosqichga ko‘tarildi. Izlanuvchan olimlarimiz tomonidan g‘o‘zaning 300 ga yaqin ertapishar navlari yaratildi. Paxta ekish, parvarishlash, yig‘ib olish jarayoni to‘liq mexanizatsiyalashtirildi. Bugungi kunda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga dehqon-fermerlarimiz gektaridan 100 sentnergacha paxta hosili olmoqda.

Paxtachilikda yangi navlarni yaratish, yetishtirish agrotexnologiyasi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini oshirish, hosildorlik hamda tola sifatini yaxshilash ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridir. Ayniqsa, suv tanqisligi sharoitida kam resurs talab qiladigan, yuqori hosildor va stress omillariga chidamli navlarni yaratish tarmoq kelajagini belgilab beradi. Bu jarayonda seleksiya, genetika va biotexnologiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonda paxtachilikning ilmiy salohiyati, zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirish orqali raqobatbardosh, resurstejamkor va barqaror paxtachilik tizimini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan ilgari surilgan yuqori hosildorlikka erishishning 8 ta asosiy qoidasi aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, 2026-yilda paxtachilikda “Ustoz – shogird” an’anasini o‘zida jamlagan “Yangi agronom” tizimi yo‘lga qo‘yilgani ilmiy tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish va yuqori hosil olayotgan xo‘jaliklar tajribasini ommalashtirish imkonini bermoqda.

Universitetimizda “Yangi agronom” tizimi doirasida 100 nafar talaba Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi ilg‘or klaster va fermer xo‘jaliklariga biriktirildi. Joriy o‘quv yilidan 10 ta ta’lim yo‘nalishining 300 nafar talabasi traktorchi-mashinist dasturi bo‘yicha o‘qitilib, ularga “A”, “B”, “C”, “D” toifadagi guvohnomalar berish yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda Quyi Chirchiq, Oqqo‘rg‘on, Oqoltin, Arnasoy va Mirzacho‘l kabi tumanlarda agromuhandislik va agrotexnologiyalar fakultetining 100 nafardan ortiq talabalari paxta terish mashinalariga mexanizator yordamchisi sifatida biriktirilib, dual ta’lim asosida o‘qib, mehnat qilyaptiki, bu agrar sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi tobora chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro paxta kuni hamda Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarning agrar va oziq-ovqat tizimlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan forumlarning Toshkentda o‘tkazilishi O‘zbekistonning agrar ilm-fan, innovatsiya va xalqaro hamkorlik bo‘yicha ochiq muloqot maydoni sifatidagi o‘rni tobora mustahkamlanayotganini namoyon etmoqda. Bu esa yurtimizni jahonga ishonchli hamkor sifatida yanada kengroq tanitib, investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Toshkent davlat agrar universiteti jamoasi paxtachilik sohasini barqaror va innovatsion rivojlantirish, yurtimizning agrar va oziq-ovqat tizimlarini takomillashtirish yo‘lida o‘zining ilmiy salohiyati, bilim va tajribasini bundan keyin ham to‘liq safarbar etaveradi.

Narzullo OBLOMURADOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

DAVLAT SIYOSATINING MUHIM MEZONI

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi mamlakatimiz tarixida muhim siyosiy-ijtimoiy voqea sifatida keng nishonlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘lishini ta’kidladi.

Mushohada

So‘nggi yillarda “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oya davlat siyosatining markaziga olib chiqilib, odamlar manfaatlarini ta’minlash, uning dardiga quloq tutish va huquqlarini himoya qilish ustuvor vazifaga aylandi. Bu g‘oyaning muhim sharti – qonun ustuvorligi, adolat va davlat organlarining xalq oldidagi mas’uliyatini ta’minlashga qaratilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi inson qadr-qimmatini yuksaltirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy poydevor sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekistonda fuqaroning millati, tili, dini, ijtimoiy mavqei yoki jamiyatdagi o‘rnidan qat’i nazar, uning qadrini hurmat qilish, huquqlarini ta’minlash va munosib sharoit yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ko‘p millatli xalqimiz o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash ham bu huquqlar ijobatining muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida inson qadri va huquqlarining oliy qadriyat sifatida belgilanishi Yangi O‘zbekistonning huquqiy, demokratik va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining muhim asosidir. Odamlarning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining mazmunini belgilab, jamiyatda



adolat, tenglik va bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning 60-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar” deb belgilab qo‘yilgan. Demak, odamlarning hurmatini joyiga qo‘yish, ulug‘lash nafaqat davlatning, balki har bir fuqaroning ma’naviy-axloqiy burchidir.

O‘zbekistonda bu g‘oya zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur tushuncha har bir shaxsning tug‘ma, ajralmas va universal qiymatiga asoslangan bo‘lib, u odamlarning biologik mavjudot emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy subyekt sifatidagi mohiyatini ifoda etadi.

Davlat va jamiyat munosabatlarida aholi manfaatlarining ustuvorligi prinsipi konstitutsiyaviy normalar va huquqiy mexanizmlar orqali ta’minlanadi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, inson qadrini amalga oshirish faqat deklarativ bayonotlar bilan cheklanib qolmay, balki qonun ustuvorligi, sud-huquq islohotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi kabi omillar orqali mustahkamlanadi. Bu yerda mantiqiy zanjir quyidagicha shakllanadi: inson qadri tan olinishi – huquqiy kafolatlar yaratilishi – amaliy mexanizmlarning ishlashi – ijtimoiy adolatning ta’minlanishi. Shu nuqtayi nazardan, bu g‘oya davlat boshqaruvining maqsadi va mezoniga aylanadi.

Ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi islohotlar bu g‘oyani amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilgan. Ilmiy jihatdan bu jarayon inson kapitali nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga investitsiya kiritish orqali jamiyatning umumiy samaradorligi oshishi isbotlangan. Mantiqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, odamning bilim va salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, u yaratadigan iqtisodiy va ijtimoiy qiymat ham shunchalik ortib boradi, bu esa, o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Demak, inson qadriga e’tibor berish, bu nafaqat axloqiy talab, balki ratsional iqtisodiy strategiya hamdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan O‘zbekistonda inson qadri konsepsiyasi zamonaviy davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotining markaziy g‘oyasi sifatida shakllandi. Ilmiy nuqtayi nazardan mazkur yondashuv insonni ijtimoiy tizimning asosiy subyekti va oliy qadriyati sifatida tan olishga asoslanadi. Bu yerda mazkur tushunchaga faqat axloqiy kategoriya sifatida emas, balki huquqiy, iqtisodiy va institutsional tizimlarning harakatlantiruvchi tamoyili o‘laroq qaraladi. Mantiqiy jihatdan, agar davlat siyosatining markazida odamlar manfaatlari tursa, barcha islohotlar uning hayoti sifatini oshirishga xizmat qilishi shart degan qonuniyat kelib chiqadi.

Davlatimiz rahbarining nutqlari va strategik dasturlarida “Inson qadri uchun” degan tamoyil izchil ravishda takrorlanib, u davlat boshqaruvining yangi paradigmasini belgilab berdi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv klassik byurokratik modeldan odamlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tamoyiliga o‘tishni anglatadi. Bunda davlat apparatining samaradorligi fuqarolarning real ehtiyoj va manfaatlarini qay darajada qondirishi bilan o‘lchanadi. Mantiqiy zanjir quyidagicha ifodalanadi: bu g‘oyani e’tirof etish – davlat siyosatini inson manfaatlariga moslashtirish – institutsional islohotlarni amalga oshirish – ijtimoiy farovonlikni ta’minlash.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar kontekstida odamlar manfaatlari huquqiy mexanizmlar orqali mustahkamlanmoqda. Qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimining modernizatsiyasi, davlat organlarining ochiqligi va javobgarligini oshirish kabi choralar inson qadrini ta’minlashga xizmat qiladi. Ilmiy jihatdan bu jarayon huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati konsepsiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Mantiqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, huquq va erkinliklar qanchalik ishonchli himoyalansa, jamiyatda adolat va barqarorlik shunchalik mustahkamlanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur g‘oya ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham o‘z aksini topmoqda. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish kabi vazifalar odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu jarayon inson kapitali nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, uning salohiyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Mantiqiy jihatdan esa aholiga sarmoya kiritish jamiyatning umumiy samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli taraqqiyotni ta’minlaydi.

Zamonaviy bosqichda O‘zbekistonda mazkur tushunchaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb qaralmoqda. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda insonga yo‘naltirilgan boshqaruv modeli sifatida ta’riflanadi. Bunda davlat faoliyatining samaradorligi ularning manfaatlarini qay darajada ta’minlayotgani bilan baholanadi. Mantiqiy jihatdan, bu o‘zgarish davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishini anglatadi, ya’ni davlatning legitimligi fuqarolar ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu tariqa qadr tushunchasi ijtimoiy tizimning markaziy mezoniga aylanib, barcha islohotlarning umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

Mamlakatimizda bu g‘oya ko‘p qirrali ilmiy tushuncha bo‘lib, u falsafiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy omillar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Odamlarning hayot darajasini yuksaltirish jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolat va institutsional samaradorlikning asosiy sharti hisoblanadi. Zotan, qadr-qimmat oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan jamiyatda taraqqiyot izchil va muvozanatli kechadi hamda barcha ijtimoiy jarayonlar aholi manfaatlari bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi.

Azamat MUXTOROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor.

Bandlik

MEBELCHILAR MAHALLASI

Oltinko‘l tumanidagi Ijtimoyat mahallasi ikki yildan buyon kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hudud hisoblanadi. Bunga erishish uchun dastlab 540 ta xonadon “ko‘k”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratilib, har bir oila bilan alohida ish olib borildi.



“Mahalla yettiligi”, avvalo, aholi bandligini ta’minlashga e’tibor qaratdi. Ishsiz fuqarolar kasb-hunar o‘rganishga yo‘naltirilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo‘lganlarga kredit olishda ko‘mak berildi. Mebel ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pligi tufayli mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga kirishildi. Konveyer usulidan foydalanildi. Ya’ni bir uyda mebelning asosi tayyorlansa, ikkinchi uyda bezak ishlari bajariladi.

– Mahallamizda 3,5 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi, 510 ta xonadonda mebel ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan, ko‘rkam va sifatli mahsulotlar mamlakatimiz bo‘ylab yetkazib beriladi, xorijga ham eksport qilinmoqda, – deydi mahalla raisi Odiljon Daminov. – Bu tajriba qo‘shni hududlarga ham kirib bormoqda. Xo‘ja, Ittifoq va Xonbog‘i mahallalaridan yoshlar kelib, mebel tayyorlash sirlarini o‘rganib, shu orqali o‘z hududida mebelchilik bilan shug‘ullanishga harakat qilyapti.

Bu bilan Ijtimoyat mahallasi nafaqat mebel ishlab chiqarish markaziga, balki mehnat, hamjihatlik va tadbirkorlik madaniyati uyg‘unlashgan, aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qilayotgan ibratli hududga aylandi.

Saminjon XUSANOV
(“Xalq so‘zi”).

O‘zbekiston Serbiya poytaxtida o‘tkazilayotgan “Wine Vision by Open Balkan” xalqaro ko‘rgazmasida ilk bor o‘z milliy stendi bilan ishtirok etmoqda.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 14-oktabr

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHGA ILG‘OR YONDASHUVLAR

Yangi O‘zbekistonda inson qadri,xalq farovonligi va yurt taraqqiyotiga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil davom etar ekan,tinchlik hamda osoyishtalikni ta’minlash masalasi muhimligicha qolaveradi. Ayniqsa,mamlakatimiz siyosiy,iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan dunyo hamjamiyati bilan tobora chuqur integratsiyalashayotgan,xalqaro aloqalar hamda hamkorlik ko‘lami kengayib borayotgan bir sharoitda jamiyatda barqarorlik va xavfsiz muhitni ta’minlash nafaqat bugungi taraqqiyot,balki kelajakdagi yuksalishning ham asosiy omilidir. Zero,tinch, osoyishta joyda islohotlar samarasi,insonning erkin faoliyati va jamiyatning barqaror rivoji uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Ta’lim

Bugun jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi oldiga qo‘yilayotgan vazifalar tobora kengayib, sohada faoliyat yuritadigan mutaxassislardan chuqur huquqiy bilimdan tashqari yuksak kasbiy mahorat, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha professional kadrlar tayyorlash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti jamoasining doimiy e’tibor markazida. Mazkur o‘quv dargohi oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida malakali kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy salohiyatini yuksaltirish hamda sohada ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallab kelmoqda.

O‘tgan yillar davomida universitetimizda nafaqat Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari, balki Qurolli Kuchlarning barcha kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun 15 ta ta’lim yo‘nalishi va 8 ta mutaxassislik bo‘yicha o‘quvning kunduzgi, sirtqi va kechki shakllarida professional kadrlar tayyorlandi.

Prezidentimizning shu yil 26-avgustda qabul qilingan “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori esa Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, uni jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida kadrlarni maqsadli tayyorlashga ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot tashkiloti sifatida transformatsiya qilishning mustahkam huquqiy asosi bo‘ldi.

Endigi vazifa faqat kadr tayyorlash emas, balki ta’lim, amaliyot hamda ilm-fan uyg‘unlashgan jamoat xavfsizligi bo‘yicha yangi professional maktabni shakllantirishdan iboratdir.

Ehtiyojlarga mos yaxlit tizim

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda natija, avvalo, shu sohada xizmat qilayotgan kadrning bilimi, dunyoqarashi, kasbiy mahorati va amaliy tayyorgarligiga bog‘liq. Shu ma’noda, qarorda kadrlar tayyorlash masalasiga shunchaki ta’lim jarayoni sifatida emas, balki sohaning real ehtiyojlariga mos, aniq maqsad va vazifalar asosida tashkil etiladigan yaxlit tizim o‘laroq yondashilgan.



E’tiborli jihati shundaki, 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab Jamoat xavfsizligi universitetida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va qo‘riqlash faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash ko‘lami ikki barobarga oshirilmoqda. Ya’ni universitetning yillik qabul kvotasi kunduzgi ta’lim shaklida 600 nafargacha kursant, masofaviy o‘quvda esa 300 nafargacha tinglovchini qamrab oladi. Bu raqamlarning o‘ziyoq yangi yondashuvning mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Boisi yangi tizimda ta’lim yo‘nalishlarining o‘zi ham sohadagi vazifalarga yanada yaqinlashtirilyapti.

Qarorda belgilangan yana bir muhim jihat, bu – kadrlarning jamiyatdagi turli qatlamlar bilan ishlashga ixtisoslashuviga alohida e’tibor qaratilgani. Jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida xotin-qizlar, yoshlar va voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha, shuningdek, bozor hamda savdo komplekslarida faoliyat yuritadigan profilaktika inspektorlari uchun maqsadli kadrlar tayyorlash belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mahallalarida aholining ijtimoiy tarkibi, yashash va faoliyat muhiti, mavjud muammolar hamda xavf omillari bir-biridan muayyan darajada farq qilishi profilaktika faoliyatida ham tor, aniq yo‘naltirilgan ixtisoslashuvga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. O‘rganishlar natijasi ham huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha muayyan ijtimoiy guruhlar va alohida faoliyat yo‘nalishlari bilan ishlashga moslashgan kadrlarni tayyorlash zarurati tobora ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Shu bois universitetda ilgari mavjud bo‘lmagan yangi ta’lim yo‘nalishlari asosida profilaktika inspektorlarini tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu zamonaviy profilaktika faoliyati universal yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, aholining turli qatlamlari hamda muayyan ijtimoiy muhit xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishini anglatadi. Eng muhimi, ta’lim jarayonida ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish, protsessual harakatlar, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, jangovar tayyorgarlik, psixologik bardoshlilik, muomala madaniyati, saf bo‘linmalarini boshqarish kabi amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi.

Eng muhim yangiliklardan yana biri ta’lim hamda amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirishdan iborat bo‘lib, bunda dual ta’lim mexanizmi orqali kursantlarning nazariy bilimlari bosqichma-bosqich amaliy ko‘nikmalar bilan boyitib boriladi. Xususan, birinchi kursda asosiy e’tibor huquqiy bilimlarni mustahkamlashga qaratilib, o‘quv jarayonining 80 foizi nazariy, 20 foizi amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lsa, ikkinchi kursda nisbat 60 foiz nazariya va 40 foiz amaliyot ko‘rinishiga o‘zgaradi. Uchinchi kursda esa nazariya va amaliyot tenglashib, har ikkisi 50 foizdan iborat bo‘ladi. Bu orqali kursantlar universitetdagi ta’limning dastlabki bosqichidanoq kasbiy faoliyat muhitiga bosqichma-bosqich kirib boradi.

Bilim, amaliy ko‘nikma va xalqaro tajriba uyg‘unligi

Bundan ikki yil avval davlatimiz rahbarining universitetga tashrifi davomida bergan topshiriqlari asosida o‘quv yurtimizda oliy harbiy ta’lim muassasalari orasida birinchilardan bo‘lib dual ta’lim joriy etilgan bo‘lib, hozirgi kunda 600 ga yaqin kursantlar aynan shu tizim bo‘yicha real vaqt rejimida amaliy mashg‘ulotlarda qatnashyapti.

Endilikda kursantlarning amaliy mashg‘ulotlari Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining tegishli bo‘linmalarida tashkil etiladi. Bitiruvchi kursdagilar tegishli sohaviy xizmatlarda “stajyor-inspektor” sifatida amaliyot o‘taydi. Ya’ni bo‘lajak mutaxassis uchun xizmat faoliyatining real muhiti bilan tanishish o‘qishni bitirgandan keyin emas, ta’lim jarayonining o‘zida boshlanadi.

Bunday yondashuvning ahamiyati shundaki, endilikda kursantlar auditoriyada o‘rgangan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radi, amaliyotda uchragan holatlar esa uning nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Natijada ta’lim va xizmat amaliyoti bir-birini to‘ldiruvchi yagona tizimga aylanadi. Quvonarlisi, endilikda o‘quv jarayoniga amaliyotchilar qamrab olinadi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash, xotin-qizlar, yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlash, jumladan, psixologik yondashuv sohalarida amaliy tajriba hamda professional mahoratga ega mahalliy va xorijiy mutaxassislar universitetga bir yillik shartnoma asosida jalb qilinadi.

Yuqoridagi qarorda ko‘zda tutilgan muhim masalalardan yana biri ta’lim sifatini xalqaro tajriba bilan boyitish maqsadida har yili kamida 30 nafar professor-o‘qituvchi, ilmiy xodim, doktorant va magistrlarni hamkor xorijiy ta’lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish, stajirovka va tajriba almashish uchun yuborish amaliyotini joriy etishdan iborat. Bu universitet ilmiy-pedagogik salohiyatini zamonaviy xalqaro tajriba bilan boyitish, yangi ta’lim uslubiyotlarini o‘zlashtirish va ularni mahalliy ta’lim jarayoniga tatbiq qilish imkonini kengaytiradi.

Ta’kidlash joizki, universitetda hozirgi vaqtda xalqaro hamkorlik doirasida 27 ta hujjat imzolangan bo‘lib, xususan, Rossiya, Xitoy, Fransiya, Belarus, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning oliy harbiy ta’lim muassasalari bilan aloqalar o‘rnatilgan.

Zamonaviy kadrning yana bir muhim kompetensiyasi – xorijiy tillarni bilish. Shu bois universitetda kursant hamda tinglovchilarga ikkita xorijiy tilni “1+1” dasturi asosida chuqur o‘rgatish tizimining yo‘lga qo‘yilishi muhim qadam bo‘ladi. Bunda tillarning biri universitet tomonidan belgilansa, ikkinchisi ta’lim oluvchining tanlovi asosida o‘qitiladi. Milliy va xalqaro sertifikat olish uchun imtihon xarajatlari universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi esa til o‘rganishni rag‘batlantirishning amaliy mexanizmini yaratadi.

Ta’lim sifatini oshirish professor-o‘qituvchilarning kasbiy hamda pedagogik salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirishda yaqqol ko‘rinadi. Shu maqsadda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oliy ta’lim muassasalari bilan professor-o‘qituvchilar almashinuvi asosida har yili 100 akademik soatdan iborat mahorat darslarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Bunday hamkorlik turli ta’lim muassasalarida shakllangan ilg‘or tajribalarni o‘zaro ommalashtirish, yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va ta’lim jarayonida sog‘lom raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Universitetning 2030-yilgacha ilmiy-pedagogik jarayonini rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilab olishi esa mazkur yangilanishlarni yagona strategik maqsad atrofida birlashtiradi. Zero, ta’lim sifatini oshirish bir martalik tadbir emas, balki aniq maqsad, o‘lchanadigan natija va muntazam monitoringni talab qiladigan uzluksiz jarayondir.

Raqamli texnologiyalar: simulyatordan “E-reyting”gacha

Jamoat xavfsizligi bo‘yicha zamonaviy vazifalarni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu bois ta’lim muassasamizda o‘quv jarayonini raqamlashtirish faqat elektron shaklga o‘tish emas, balki kursant va tinglovchilarni real xizmat vazifalariga zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlashni nazarda tutmoqda.

Shu maqsadda o‘quv dasturlarimizga jamoat xavfsizligi yo‘nalishida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan “Xavf-xatar tahlili”, “Profayling”, “OSINT va raqamli tahlil”, “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda geoinformatsion tizimlardan foydalanish”, “Uchuvchisiz uchish qurilmalari va robototexnika majmualaridan foydalanish” kabi yangi fanlar kiritilmoqda. Eng muhimi, kursant hamda tinglovchilar sun’iy intellekt texnologiyalari, maxsus dasturiy ta’minotlar va dronlardan foydalanishni faqat nazariy jihatdan emas, amaliy mashg‘ulotlar orqali ham o‘rganadi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni bilishdan ularni jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalarida qo‘llay olishga o‘tishni anglatadi.

Ta’lim dasturlarining Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti, milliy va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilishi esa o‘quv mazmunini amaliyot hamda xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Darvoqe, raqamlashtirish jarayoni faqat dars berish bilan cheklanmay, ta’lim natijalarini baholash tizimiga ham kirib boradi. Universitetda joriy etiladigan “E-reyting” platformasi professor-o‘qituvchilar, kursant va tinglovchilar faoliyatini kompleks mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Unda reyting natijalari onlayn “dashboard” shaklida aks ettirilib, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining natijalarini muntazam kuzatish hamda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bunda professor-o‘qituvchilarning innovatsion metodik yondashuvlari va mashg‘ulotlar samaradorligi, kursant hamda tinglovchilarning akademik ko‘rsatkichlari, jismoniy tayyorgarligi, ilmiy-ijodiy va ijtimoiy faolligi kompleks ravishda inobatga olinadi.

Bu mexanizm ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash barobarida ulardan foydalanish natijasini ham o‘lchash imkonini beradi.

Bugun oldimizda turgan ustuvor vazifalar juda ko‘p. Endi yangi yo‘nalishlarni shunchaki o‘zlashtirish emas, balki mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli ta’minlay oladigan, zamonaviy bilim, yuksak mas’uliyat hamda Vatanga sadoqatni o‘zida mujassam etgan yangi avlod kadrlarini tarbiyalashga jiddiy e’tibor qaratamiz. Zero, Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilish – bugungi islohotlarni qo‘llab-quvvatlashdan ko‘ra kengroq tushuncha: u har bir qarorni mas’uliyat bilan hayotga tatbiq etish, har bir imkoniyatdan yurt tinchligi hamda xalq osoyishtaligi yo‘lida samarali foydalanishni talab qiladi.

Mirzayusuf RUSTAMBOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor.

CHUST PICHOG‘I – MILLIY BREND

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan “Chust pichog‘i” geografik ko‘rsatkich sifatida 2024-yilda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng u geografik brend darajasida e’tirof etila boshladi. Endi Chust nomi hududiy manzilni anglatibgina qolmay,muayyan madaniy mahsulot bilan bog‘liq tushunchaga aylandi.

Hunarmandchilik

– Bu e’tirof hududda turistik jozibadorlikni kuchaytirish uchun katta imkoniyat va rag‘batdir, – deydi Chust tumani hunarmandlar uyushmasi raisi Akmalxon Karimov. – Ayniqsa, keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan xalq amaliy san’ati, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, kelgusi avlodlarga asl holicha yetkazishga qaratilayotgan katta e’tibor tufayli pichoqchilik qayta tiklandi.

Buning amaliy ifodasi sifatida Chust tumanida 17 gektarga yaqin maydonda barpo etilgan Hunarmandlar shaharchasini ko‘rsatish mumkin. 30 dan ziyod pichoqchi ustalarning 10 nafariga ushbu shaharchadan joy ajratildi. Bu yerda mukammal loyiha asosida ustaxona, ko‘rgazma va savdo zallari, o‘quv ustaxonalari qurilishi yakunlanish arafasida.

– Men tarixi 200-yil muqaddam boshlangan pichoqchi-hunarmandlar sulolasining yettinchi avlodiman, – deydi Chust hunarmandchiligining taniqli namoyandalaridan biri, “Do‘stlik” ordeni sohibi Rahimjon Ubaydullayev. – Hozir o‘g‘illarim, nevaralarim timsolida sakkizinchi va to‘qqizinchi avlod ham izimizdan boryapti. Bundan tashqari, “Ustoz – shogird” maktabimizda 30 dan ziyod yoshlarga ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan pichoqchilik san’ati sirlari o‘rgatilmoqda. Bugun ham ota-bobolarimiz yaratib ketgan maktab – qo‘l mehnati bilan pichoq yasab kelyapmiz va biz bundan moddiy manfaatdorlik bilan bir qatorda ma’naviy quvvat olamiz. Hozir “Yorma”, “Suqma”, “Tolbargi”, “Halqali”, “Kallali” pichoqlar bozori chaqqon.



Chust pichoqlari – oilaviy daromad manbai, turizm mahsuloti, hududiy brend, eksport salohiyatiga ega mahsulot. Qolaversa, mamlakatimizda mazkur sohaga katta e’tibor qaratilayotgani bois bu hunarmandchilik turi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan tobora rivojlanib bormoqda.

Akramjon SATTOROV
(“Xalq so‘zi”).

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Sohilbo‘yi obod maskanga aylanadi

“Do‘stlik” kanalining Guliston shahridagi 3,4 kilometrlik o‘zanini betonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Buning natijasida suvning yerga sizishi kamayadi,shahar hududining meliorativ holati yanada yaxshilanadi,kanalning suv o‘tkazuvchanlik darajasi ortadi va albatta, sohilbo‘yi ko‘rkam qiyofaga kiradi.





Xususan, 5,62 kilometr asfalt yo‘l va 1,02 kilometrlik piyodalar yo‘lagi barpo etiladi. Himoya panjaralari va tungi yoritish chiroqlari o‘rnatiladi. Kanalbo‘yi obod maskanga va aholi uchun qulay dam olish hududiga aylanadi.

– Bundan bir necha yil avval kanalning shahardan o‘tgan bir qismi betonlashtirilgandan so‘ng uzoq yillar tashlandiq holatda qolgan sohilbo‘yi tanib bo‘lmas darajada obod bo‘ldi, – deydi Guliston suv inshootlari va “Do‘stlik” kanali boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Abdukarim Azimov. – Bu yerda bir necha muhtasham binolar, so‘lim xiyobonlar, yurish-yugurish yo‘laklari va boshqa dam olish hamda sport maskanlari barpo etildi. Endi kanalning beton qoplanayotgan qismidagi sohillarida ham tez orada ana shunday go‘zal hudud paydo bo‘ladi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, “Do‘stlik” kanali Sirdaryo havzasida 100-yildan oshiqroq vaqtdan buyon barqaror ishlab kelyapti. U O‘zbekiston hududi orqali Qozog‘istonga oqib o‘tuvchi yirik transchegaraviy magistral kanal hisoblanadi. Xalqaro irrigatsiya va drenaj komissiyasi tomonidan 2025-yilda O‘zbekistondagi ikki kanal – “Eski Tuyatortar” va “Do‘stlik” kanallari “Xalqaro irrigatsiya merosi” deb e’tirof etilgan edi.

Ahmadali SHERNAZAROV
(“Xalq so‘zi”).

Uzumzorda quyosh panellari

Farg‘ona viloyatida uzumchilik tarmog‘i hududning agrar salohiyatini namoyon etuvchi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Quva tumanidagi “AOK Garden” mas’uliyati cheklangan jamiyati uzumzorlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanilayotgani ham buning yaqqol misolidir.



Ushbu xo‘jalikning umumiy 110 gektar maydonidan 50 gektarida 10 mingta quyosh paneli o‘rnatilgan. Mazkur tizim orqali 5 MVt quvvatda muqobil energiya ishlab chiqarilmoqda.

– Quyosh panellari nafaqat elektr energiyasi bilan ta’minlaydi, balki uzumzor uchun soya vazifasini ham bajaradi, – deydi laboratoriya mudiri Sardorbek Toirov. – Buning natijasida uzum ko‘chatlari atrofidagi namlik saqlanib, suv sarfi tejalmoqda. Ayni paytda uzumzorda o‘simliklar uchun qulay mikroiqlim shakllanadi.

Ta’kidlash joizki, Quvada bugungi kunda 6,5 ming gektar mevali bog‘lar mavjud bo‘lib, shundan 1,2 ming gektarini intensiv bog‘lar tashkil etadi. Tumanda yetishtirilayotgan mahsulotlar 38 ta korxona orqali dunyoning 15 ga yaqin mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Botir MADIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

Buyuk alloma, davlat va jamoat arbobi Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Turkiston qayg‘usi” asari Fransiyada nashr etildi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 21.39 Topshirildi – 00.50 1 2 3 4 5 6